

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI  
SOTSILOGIYA KAFEDRASI**

**ISROPILOV MURODJON BOXODIR O'G'LI**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**MAVZU: AYOLLAR MIGRATSİYASIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOIY  
OMILLAR**

**Ilmiy rahbar:  
s.f.n., dotsent Aliqorieva A.N.**

**Toshkent – 2018**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>II BOB. AYOLLAR MIGRATSIYASI JARAYONLARINI O'RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....</b>	<b>8</b>
<b>    1.1. Ayollar migratsiyasi jarayonlarining nazariy asoslari.....</b>	<b>8</b>
<b>    1.2. Ayollar mehnat migratsiyasi yuzaga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy omillari .....</b>	<b>23</b>
<b>II BOB. AYOLLAR MIGRATSIYASINI SOTSIOMADANIY MUNOSABATLAR O'ZGARISHIGA TASIRI.....</b>	<b>34</b>
<b>    2.1. Sotsiomadaniy munosabatlar o'zgarishi sharoitida ayollar migratsiyasi jarayonlarining o'zgarish tendentsiyalari .....</b>	<b>34</b>
<b>    2.2. Ayollar migratsiyasiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy omillarning sotsiologik tahlili.....</b>	<b>43</b>
<b>XULOSA .....</b>	<b>57</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>60</b>
<b>ILOVALAR .....</b>	<b>63</b>

## KIRISH

**Mavzuning dolzarblii.** Bugungi kunda butun dunyoda jadal globalizatsiya jarayonidavom etmoqda. Xususan mamlakatimizda ham ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalarida ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda, jumladan mamlakatimizda xalqaro munosabatlarning yanada rivojlanishi, migrantsion jarayonlardagi turli keng ko‘lamli islohotlarning bari inson va uning omili uchun xizmat qilishiga xizmat qilinmoqda. Prezidentimiz SHavkat Mirziyoev tomonlaridan yaqin qo‘snnichilik va iqtisodiy hamkorlik sohasidagi qilinayotgan islohotlari boshqa mamlakatlar bilan migrantsion jarayonlarni yanada tartibga solishga xizmat qilmoqda, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Migratsiya jarayoni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotga juda katta ta’sir ko‘rsatib, shuning barobarida migratsyaning asosiy turlaridan biri hisoblangan ayollar mehnat migratsiya jarayoni ijtimoiy-iqtisodiy hayotga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Lekin, bu holat ob’ektiv va sub’ektiv omillarga bog‘liq holda salbiy va ijobiy holatlarni keltirib chiqarmoqda. Mehnat migratsiyasi jarayonida turli-xil iqtisodiy-ijtimoiy, ba’zan esa siyosiy muammolar ham uchrab turibdi, ayollar xorijiy mamlakatda mehnat migranti sifatida faoliyat yuritish jarayonida ko‘plab muammolarga duch kelmoqdalar, ularga nisbatan adolatsizlik yoki ma’lum bir huquqlarining ta’minlanmasligi mana shunday muammolarning mavjudligi mavzuning dolzarblik ahamiyatini tashkil etadi. Mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini quyidagi fikrlar bilan asoslash mumkin:

**Birinchidan,** Prezidentimiz rahnamoligida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar jarayonida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini yuksaltirish, huquq va manfaatlarini ta’minalash, salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilishga alohida e’tibor qaratilayotgani ta’kidlandi. Ilm-fan sohasida izlanayotgan xotin-qizlar har tomonlama qo’llab-quvvatlanib, olma ayollar tajribasini ommalashtirish, ularning ilmiy-tadqiqot va izlanishlar olib borishi uchun sharoit yaratish, innovatsion ishlanmalarini hayotga tatbiq etish va ilmiy to‘plamlarini nashr qilishga ko‘maklashish borasida zarur chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

**Ikkinchidan**, “O‘zbekistonda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta’minlash, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishi sifatida belgilangan. O‘tgan yillarda bu sohada salmoqli ishlar amalga oshirildi, biroq xotin-qizlar manfaatlarini amalga oshirishning samarali mexanizmi yaratilmadi. Xotin-qizlar qo‘mitasi, mahalla va boshqa jamoat tashkilotlari yillar davomida faqat turli tadbirlar va yig‘ilishlar o‘tkazish bilan cheklandilar, og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushgan oilalar, ayollar va qizlarga amaliy yordam ko‘rsatish bo‘yicha samarali ishlar olib bormadilar. Buning oqibatida joylarda ko‘plab muammolar to‘planib qolgan bo‘lib, ularni hal etish uchun aniq manzilli choralar ko‘rilmadi”<sup>1</sup>.

**Uchinchidan**, Prezident Sh.Mirziyoev 2018 yil 7 fevralda o‘tkazilgan yig‘ilishda O‘zbekistonda xotin-qizlar huquqlari va manfaatlarini himoya qilish sohasidagi ishlarga mana shunday baho berdi. Bu tadbir oila institutini mustahkamlashga bag‘ishlangandi. Yig‘ilishda mamlakat rahbari tomonidan xotin-qizlar qo‘mitalari faoliyatiga salbiy baho berildi (“qoniqarsiz ahvolda”), shuningdek erta turmush qurish, ajralishlar va xotin-qizlar o‘rtasidagi jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha ishlar olib borilmayotgani qayd etildi.

**To‘rtinchidan**, XXI asrning boshlanishi jahon xo‘jaligining sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilganligi bilan xarakterlanadi. Iqtisodiyotning globallashuvi ko‘p sohalarni qamrab olganligi sababli mehnat bozorida katta o‘zgarishlar yuz bermoqda va ishchi kuchi migratsiyasi jarayonlari yangicha namoyon bo‘lmoqda. SHuning uchun ham bu muammoni tadqiq qilish muhim va dolzarb hisoblanadi.

**Beshinchidan**, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek: “Qishloqda uy-joy qurish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishni jadallashtirish dasturi zamirida o‘n minglab yangi ish o‘rinlarini yaratish, ana shu keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlarida mamlakatimiz aholisining faol ishtirokini ta’minlash imkonini berishini unutmasligimiz kerak. Biz mazkur dasturni amalga oshirish vazifasini o‘z oldimizga qo‘yar ekanmiz, bu bilan mamlakatimiz uchun dolzarb

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 8-mart xotin-qizlar bayramiga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi ma’ruzasi. – Toshkent,2018.

bo‘lgan aholi bandligini ta’minlash, shu tariqa odamlarning daromadini yanada oshirish va hayot sifatini yuksaltirish masalalarini hal etishni ko‘zda tutamiz”<sup>2</sup>.

**Mavzuning o‘rganilganlik darajasi.** Migratsion jarayonlarni o‘rgangan tadqiqotchilar ko‘pincha migratsion jarayonlar mohiyatini, sabablari, ko‘rinishlari va yo‘nalishlarini sotsiologik jihatdan tahlil qilish uchun tanlab oladigan yondashuvlarni ma’lum bir shartli ulushi bilan ikki turga guruhlashtirish mumkin. Birinchi guruhga tadqiqot vektori individual migratsion xulqni belgilab beruvchi obektiv makroiqtisodiy va makrosiyosiy omillarga yo‘naltirilgan yondashuvlarni kiritish mumkin: Tuzilmali funktsionalizm<sup>3</sup> (T.Parsons, R.Merton, E.Giddens), iqtisodiy va institutsional ratsionalizm<sup>4</sup> ( M.Veber, E.Dyurkgeym), “tortish itarib chiqarish” nazariyasi<sup>5</sup>(M.Kern, e.Ravenshtayn, S.Staufer, Z.Zelinski, G.Jerom, E.Li va boshqalar.); postindustrial jamiyat va tobelikda rivojlanish nazariyasi<sup>6</sup> (A.Toffler, R.Darendorf, A.Turen, D. Xarris, M.Todaro, M.Kastel`s va boshqalar.); ijtimoiy mobillik nazariyasi<sup>7</sup>(P. Sorokin, T. Dina va boshqalar.) Ikkinci guruhga ichki va tashqi omillarni (referent guruhlardagi ijtimoiy aloqalar va me’yorlar) e’tiborga oluvchi yondashuvlar kiradi: Madaniy anklavlar va inson ekologiyasi nazariyalari<sup>8</sup> (R.Park, U.Tomas, F.Znanetskiy, R.Mak Kenzi); ijtimoiy kapital (sarmoya)nazariyasi<sup>9</sup> (G.Louri, P.Burd`e, J.Koulman); tarmoqlar nazariyasi<sup>10</sup> (M.Gordon, O.Xandlik va boshqalar) ni keltirib o‘tishimiz mumkin.

Mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan olimlardan; A.Qayumov, G.Maksakova, R.Ubaydullaeva, O.At-Mirzaev<sup>11</sup>, kafedramiz olimlaridan

<sup>2</sup>КаримовИ.А. Асосий вазифамиз – ватанимиз тараққиёти ва халкимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. – Т.: “Ўзбекистон”, 2010, б. 77.

<sup>3</sup>Parsons T. Levels of organisation and the mediation of social interaction // Sociol. Inquiry. 1964. V. 34.

<sup>4</sup> Merton R. K. Manifest and latent functions // Social Theory and Social Structure, 1949-1968. N.Y., 1988.

<sup>5</sup>Керн С. Германия: эпидемия изнасилований мигрантами. Доступ: <http://holicin.livejournal.com/5498648.html> (проверено 16.10.2016).

<sup>6</sup>A.Toffler Future Shock. New York: Bantam Books, 1971. - P.74.

<sup>7</sup>Сорокин П. Человек. Цивилизация. Общество. М.: «Полит. лит-ра», 1992. – С. 297-302.

<sup>8</sup> F. Znaetski The polish Peasant in Europe and America. Vol.1-5 1918-1920

<sup>9</sup> G. Louri On social organization and social Personality. 1966 28-32

<sup>10</sup> M.Gordon Library of economics and liberty

<sup>11</sup>Kayumov A.A. Regionalnye osobennosti zanyatosti naseleniya v sentralnoaziatskix stranax s perexodnoy ekonomikoy // Ekonomika i finansy. –М.: – 2003. –№4.–S.79–81; Maksakova L. Migratsiya naseleniya: problemy regulirovaniya. –Т.: Eldinur. 2001. –S. 180; Maksakova L. Migratsiya i tyomok truda v stranax Sredney Azii. –Т.: Breyd-Stayl. 2002. –S.136; Maksakova L. Selskie migranti na tyomokh truda gorodov Uzbekistana. –М.: 1999. – S.28; Ubaydullaeva R. Demograficheskaya situatsiya Uzbekistana i perspektivy ee razvitiya. Sotsialno-

N.S.Aliqoriev, M.X.Ganieva, K.K.Kalanov, F.Y.Parmonov<sup>12</sup> va boshqalar o‘z ilmiy ishlarida migratsiya jarayonlari haqida tadqiqotlar olib borganlar.

**Tadqiqotning ob’ekti va predmeti.** Tadqiqot ishining obekti ayollar migratsiyasi jarayoniga ta’sir etuvchi omillarni sotsiologik tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, predmeti esa ijtimoiy-demografik qatlam sifatida migrantsion jarayonlarda ayollarning ishtirokini sotsiologik tahlil qilish orqali taklif va tavsiyalar berish hisoblanadi.

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari.** Malakaviy bitiruv ishining asosiy maqsadi ayollar mehnat migratsiyasi jarayonlariga ta’sir etuvchi omillarini sotsiologik tadqiqotlar orqali aniqlash va ma’lum tavsiyalar berishdan iborat. Tadqiqotning maqsadi quyidagi vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi:

- ayollar migratsiyasi jarayonlarini o‘rganishning nazariy-metodologik asoslarini o‘rganish;
- ayollar migratsiyasi jarayonlarining nazariy asoslarini tahlil qilish;
- ayollar mehnat migratsiyasi yuzaga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy omillarini aniqlash;
- ayollar migratsiyasini sotsiomadaniy munosabatlar o‘zgarishiga tasirini o‘rganish;
- sotsiomadaniy munosabatlar o‘zgarishi sharoitida ayollar migratsiyasi jarayonlarining o‘zgarish tendetsiyalarini aniqlash;
- ayollar migratsiyasiga ta’sir qiluvchi omillarning sotsiologik tahlil qilish.

**Tadqiqot metodi.** Mavzuni yoritishda tahlil va umumlashtirish, hujjatlarni o‘rganib chiqish, suhbatlashish, so‘rov, kuzatish usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy farazi.** Bitiruv malakaviy ishining muammosini nazariy jihatdan tadqiq etish va o‘tkazilgan amaliy kuzatishlar natijalaridan kelib chiqqan holda quyidagicha ilmiy farazni ilgari surishimiz mumkin:

---

demograficheskie protsessy v sovremenном Uzbekistane. –T.: “O‘zbekiston”, 2009. –S.14–23; Ata-Mirzaev O. Potensial selsko-gorodskoy migrantsii molodeji v Uzbekistane. –M.: 1999. –S. 28;

<sup>12</sup> Parmonov F.Y Migratsiya: musofir va vatangadolar. – Toshkent, 2015; Социокультурные аспекты современных миграционных процессов. – Москва, 2012.

– Jahondagi iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi sharoitlarida aholining mamlakat tashqarisida bandligiga mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyat shakllaridan biri sifatida qaralib, bunday bandlik davlat tomonidan qo'llab-quvvatlab turilishi lozim.

– Rivojlangan mamlakatlar bilan mehnat migratsiyasi sohasida hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilishi, kelgusida ayollar uchun qonuniy asosda xorijda mehnat qilish imkoniyatlarini yaratib berishining kafolatidir.

**Tadqiqotning nazariy-metodologik asosi.** Ushbu tadqiqot ishiga O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, galdagi vazifalar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning iqtisodiyotni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha fundamental asarlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari, qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, chet ellik va respublikamiz etakchi olimlarining ushbu mavzuga oid ilmiy-tadqiqot ishlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati.** Ushbu bitiruv malakaviy ishi doirasida o'r ganilgan muammolar yuzasidan aniq taklif va tavsiyalar tizimi ishlab chiqish va shu asosida ayollar migratsiyasiga oid ijtimoiy-iqtisodiy omillarning sotsiologik tahlilini amalga oshirish bo'yicha amaliy takliflar va tavsiyalaridan O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining tegishli boshqarma va bo'limlarida aholining ish bilan bandligini ta'minlashga qaratilgan tarmoq dasturlarini ishlab chiqishda, mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solishga qaratilgan me'yoriy hujjatlar loyihibarini tayyorlashda foydalanish mumkin.

**Tadqiqotning aprobatasiyasi.** Ushbu tadqiqot ishi yuzasidan muallifning «Migratsiya kecha bugun va ertaga» maqolasi o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjuman to'plamida nashr etilgan.

**Malakaviy bitiruv ishining hajmi va tuzilishi:** kirish, 2 ta bob 4 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovadan iborat.

## **II BOB. AYOLLAR MIGRATSİYASI JARAYONLARINI O'RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI**

### **1.1. Ayollar migratsiyasi jarayonlarining nazariy asoslari**

Ma'lumki, uzoq vaqt mobaynida migratsiya ayniqsa mehnat migratsiyasi faqat erkaklar misolida tushunilar edi, Bu fikrlar bugun ham bor, lekin o'tgan asrning oxirida ekspertlar, xalqaro va mintaqaviy darajalarda migratsiya oqimlarining globallashuvi feminizasyon ta'siri ostida, deb aytishardi. SHunday qilib, turli baholarga ko'ra, ayollar dunyoda migrantlarning umumiyligi sonining 40-50 foizini tashkil qiladi.

Mehnat migratsiyasi – obektiv va iqtisodiy jihatdan asoslangan jarayondir. Migrantlar uchun esa bu boshqa mintaqa, hatto davlatda ish topish imkoniyati demakdir<sup>13</sup>. Migrantlarni qabul qiluvchi mintaqa yoki davlat iqtisodiyoti uchun bu jarayon mahalliy bozorda mehnat resurslari yo'qligi bois qo'shimcha mehnat resurslarini jalg qilish imkoniyatini yaratadi. Biroq, mehnat migratsiyasi ijobjiy samara berish bilan birga ko'plab muammolarni ham yuzaga keltiradi. Bu borada, birinchi navbatda, gap xalqaro mehnat migratsiyasi haqida bormoqda.

Odam savdosi va migrantlar savdosi odam savdosi va migrantlar savdosi er yuzidagi nomuntazam migratsiyaning nisbatan kam ulushini tashkil kiladi, ammo oxirgi paytda shunchalik e'tiborni tortdiki, bu bobning qolgan qismini shu masalalarga bagishlashga arziyi. Qisqacha 4 ta savolga javob beriladi. Odam savdosi va migrantlar savdosi nima? Xajmi qanaqa? SHunga aloqador qancha? Migrantlarning o'zları uchun oqibatlari qanaqa? Hatto qonun-qoidalarni ishlab chiquvchilar va olimlar tomonidan bu ikkita tushuncha ko'pincha bir-biri bilan chalkashtirilishiga qaramasdan, odam savdosi va migrantlar savdosi o'rtasida qonuniy farq bor. BMTning Odam Savdosini Ta'qiqlash, yo'qotish va jazolash

---

<sup>13</sup>Пооценкам ООНиМОТ (Labor migration // International migration policies. UN Dep. of econ.and social affairs. Population division. NY, UN. 1998. P. 87-172).Population in Europe and North America on the Eve of the Milenium: Dynamic and Policy Resppnoses // Regional Population Meeting 7-9 December.

Protokoli odam savdosiga quyidagicha izoh beradi<sup>14</sup>: Tahdid yoki kuch ishlatish yoki majburlashning, o‘g‘irlashning, firibgarlikning, aldashning boshqa shakllari, amaldan foydalanish, zaiflik holatidan foydalanish, yoki pul berib pul olish orqali bir odamning ikkinchisi ustidan nazorat qilish, ekspluatatsiya qilish maqsadida odamlarni yollash, transportirovka qilish, jo‘natish yoki qabul qilishdir.

Migratsiya bo‘yicha xalkaro tashkilotning o‘rganishlariga ko‘ra, ko‘pincha sodir bo‘ladigan narsa shuki, yosh ayollarga ko‘proq chetga borib ishlash imkoniyatlari haqida va’dalar beriladi. Marx esa ayol borib ishni boshlagandan keyin bo‘lib-bo‘lib to‘lashi kelishiladi. Keyin manzil mamlakatga odatda noqonuniy yo‘l bilan jo‘natiladi, keyin u boshqa noqoniniy ishlar bilan shugullanishga majburligini anglab etadi, uning daromadini esa uni olib kelgan odam olib qo‘yadi.

YOsh ayollar va bolalarning qarshilik ko‘rsatishlariga qaramasdan, o‘z uylaridan majburan o‘g‘irlab ketilganligi haqida ham ma’lumotlar bor. Haqiqatdan ham ba’zi odamlar odam savdosini quldorlikning zamonaviy ko‘rinishi deb, tasvirlamoqda. Migrantlar savdosi esa quyidagicha ta’riflanadi: «Bevosita yoki bilvosita moliyaviy yoki boshqa moddiy foyda olish maqsadida, kishining fuqaroligi, rezidentligi bo‘lmagan davlatga noqonuniy kirishini ta’minalashdir<sup>15</sup>». Odam savdosiga teskari tomoni shuki, migrantlar savdosi kupincha o‘z xoxishiga binoan bo‘ladi. Bu yashirin (potentsial) migrantlarni yoki kupincha ularning oilalarini o‘z ichiga oladi, ular esa manzil davlatga nokonuniy yul bilan ko‘chish uchun migrant savdosibilan shug‘ullanuvchiga pul to‘laydilar. Odatda ular o‘z manzillariga etib olgach, bu savdobilan shug‘ullanuvchi bilan aloqasi tugaydi, shuning uchun ular odam savdosi qurbanlari kabi ekspluatatsiya qilinishga majbur emas. Haqiqatda esa, odam savdosi va migrant savdosi o‘rtasidagi chegaralar yo‘qolib ketishi mumkin. Bu ayniqlsa migrantlar savdogarga ko‘chishdan oldin pulini to‘lamaganda sodir bo‘ladi, ya’ni ularmanzil davlatga migrant savdosi bilan

<sup>14</sup> Kayumov A.A. Regionalnye osobennosti zanyatosti naseleniya v sentralnoaziatskix stranax s perexodnoy ekonomikoy // Ekonomika i finansy. –M.: – 2003. –№4.–S.79–81.

<sup>15</sup>

shug‘ullanuvchiga qarzdor bo‘lib keladilar. Bu esa o‘znavbatida ekspluatatsiya kilinishga imkoniyatni yaratadi.

Xalqaro tadqiqotlar materiallar sifatida, “migratsiya bir gender neytral hodisa emas, erkaklar va ayollar migratsiya farqlarni ko‘rsatib, ularga turli imkoniyatlar, va qiyinchiliklar bilan bir-biridan farq qiladi.”<sup>16</sup> Ayollar mehnat muhojirlari alohida e’tiborga muhtoj bo‘lgan maxsus hodisa hisoblanadi. Mehnat bozorida yuqori malakali ayollarga ish o‘rinlarining va talablarning kamligi ham ularni xorijga mehnat migrant sifatida chiqishlariga sabab bo‘lmoqda. Bu shuningdek, Markaziy Osiyodan borgan ayol migrantlar kuchli qadryatli va patriarchal jamiyatdan borgandan so‘ng boshqa joy va turli ijtimoiy-madaniy muhitga kirib, o‘sha joyga moslashish holatlari ham yuz bermoqda, bu esa o‘z navbatida diniy bag‘rikenglik va madaniyat identifikatsiya qilish masalalarida juda muhim ekanligini ta’kidlash lozim.

Migrant ishchi ayollar muammolari haqida gapirishga imkon beruvchi hech qanday haqqoniy empirik ma’lumotlar yo‘q. Mehnat migratsiyasi statistikasi juda cheklangan va real oqimlarning faqat kichik qismini qamrab oladi. Bundan tashqari, ayollar migrant ishchilar ular ko‘pincha xususiy uylarda yoki kichik xususiy muassasalarida faoliyat yurutadilar va tadqiqotchilarning ko‘zlaridan yashiringan holda umumi statistik ma’limotlarga krita olmaymiz, SHuning uchun, ayollar migrant ishchilar ehtiyojlarini tushunishda faqat statistikaga tayanib ish ko‘rish etarli emas, ularning huquqlarini to‘g‘ri baholash, amalga oshirish uchun, boshqa tadqiqot vositalaridan foydalanish lozim.

Migratsiya jarayonlarining ilmiy tadqiqotlari doimo ularning ochiqligini va harakatchanligini aks ettirmaydi. Ayollar mehnat migratsiyasi masalalarida fundamental masalalar kam bo‘lganligi bois, ular haqida maksimal darajada ma’lumotlarga ega emasmiz. Globallashuv ijtimoiy hayotning barcha sohalariga, jumladan, iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy soha, madaniyat, ekologiya, xavfsizlik va boshqa jihatlarga ham ta’sir ko‘rsatadi. Bu muhim jarayon hisoblanib, unda hech

---

<sup>16</sup>Stalker P. Workers Without Frontiers. The Impact of Globalization on International Migration. USA, ILO, Lynne Rienner Publishers, 2014.

qanday davlatning tashqi siyosatini bashorat qilish, aniqlash va amalga oshirish mumkin emas. Bu ma'lum bir tezlashtirish bilan bog'liq dinamik jarayon hisoblanadi.

Globalashuv muammosi juda murakkab hodisa bo'lib, uning oqibatlari juda mushkul holatlarni keltirib chiqaradi. Bir tomondan, tadqiqotchilarning barcha argumentlari globalashuvning mohiyatini tushunish va barcha davlatlar bir sayyora ta'limi bilan tobora birlashib borayotgani haqidagi fikrni o'rganishadi AQSHda Genri Kissinger, Dean Ruska va Adolf Berloning rahbarligida boshlangan keng miqyosli loyihadan boshlanadi. Birgalikda ish olib borishda dunyodagi o'zaro bog'liqlikning o'sishi va milliy-davlat boshqaruv shaklining kutilayotgan pasayishi bo'yicha nazariy pozitsiyalar belgilandi.

SHuningdek, xavfsizlik muammolarini keng talqin qilish va xalqaro miqyosdagi tuzilmalarga o'tish xalqaro miqyosda oqlandi. Bugungi kunda ko'plab mutaxassislar globalashuvning jiddiy oqibatlarga olib kelishini ta'kidlashmoqda. Ularning orasida "oltin milliard" va dunyo aholisining qolganlari orasida turmush darajasining kengayishi holatlari ham mavjud. Bundan tashqari, turli aholi guruhlari va viloyatlar o'rtasidagi o'sish rivojlanayotgan mamlakatlarda balki globalashuv eng rivojlangan mamlakatlarda qattiq qarshilikka uchrashi mumkin.

Globalashuv jarayonlari bozorida uning mohiyatiga juda ko'p qarashlar mavjud. Masalan, amerikalik tadqiqotchi T.Friedman "Globalashuv bizga yoqish yoki yoqmasligidan qat'iy nazar u yuqori standartli og'ir texnologyalar oldida kuchli integratsion jarayonimizga kata ta'sir o'tkazadi deb ta'kidlaydi<sup>17</sup>.

Globalashuv bizning sayyoramiz rivojlanishining keyingi yo'nalishini belgilovchi eng ta'sirli kuchlardan biri bo'lgan zamonaviy dunyo tizimining muhim jihat bo'ldi. Bu ijtimoiy hayotning barcha sohalariga, jumladan, iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy soha, madaniyat, ekologiya va xavfsizlikka ta'sir qiladi. To'liq ishonch bilan aytish mumkinki, Markaziy Osiyo davlatlari xususan O'zbekiston ham global jarayonlarning ijobiy va salbiy oqibatlarini boshdan kechirmoqda.

---

<sup>17</sup> The world is flat 2005.

Globallashuv jarayoni xalqaro mehnat taqsimoti hamkorliklarni chuqurlashtirish uchun o‘z hissasini qo‘sadi. Sanoat hamkorligi va samarali mehnat resurslarining xalqaro harakatlari tashqi mehnat muhojirlarini ham chetlab o‘tmaydi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, xorijiy ishchi kuchining eksporti bugungi kunda ham jadal davom etib kelmoqda. Mehnat migratsiyasi muammosi nafaqat iqtisodiy beqaror mamlakatlarni, balki iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. V. Beuningen ma’lumotlariga qaraganda “Xalqaro mehnat migratsiyasi bugungi kunda sezilarli darajada dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida ishchi kuchining ta’siri iqtisodiyotni jadal globalashuv jarayonlaridan biri hisoblanadi” deb qayd etgan<sup>18</sup>.

Boshqa tomondan, globalashish erkin va to‘siksiz mehnat harakatini o‘z ichiga olmaydi. Bu sanoat rivojlangan mamlakatlarda ishsizlik juda yuqori ekanligi bilan bog‘liq. Agar mehnatga bo‘lgan talab mavjud bo‘lsa, unda u yuqori malakali “inson kapitali” ga ishora qiladi. Mezbon jamiyat hududida chet ellik muhojirlar uchun qat’iy kvota va rejimlar ishlab chiqilmaydi va bu jarayon global iqtisodiy inqiroz davrida ko‘plab ishsizlik muammolarini kuchayib ketishiga sabap bo‘ldi.

Migratsiya quyidagi qator gumanitar fanlar tomonidan o‘rganib kelinmoqda: antropologiya, demografiya, tarix, iqtisod, siyosatshunoslik, sotsiologiya va boshqalar. Sotsiologiyaga keladigan bo‘lsak, sotsiologlar migrantsion jarayonni ijtimoiy-geografik ko‘chish jarayoniga qamrab olingan aholining ijtimoiy o‘zaro munosabatlari sifatida ifodalaydilar, vaholanki, tahlil asosan makrodarajada, ya’ni jamiyatni ijtimoiy tizim sifatida o‘rgangan holda amalga oshiriladi. Tadqiqotchilar ko‘pincha migrantsion jarayonlar mohiyatini, sabablari va shakllarini sotsiologik jihatdan tahlil qilish uchun tanlab oladigan yondashuvlarni shartlilikning ma’lum ulushi bilan ikki blokka guruhlashdirish mumkin.

Birinchi guruhga tadqiqot vektori individual migrantsion xulqni belgilab beruvchi ob’ektiv makroiqtisodiy va makrosiyosiy omillarga yo‘naltirilgan yondashuvlarni kiritish mumkin: tuzilmali funktsionalizm (T.Parsons, R.Merton,

---

<sup>18</sup>The work of strangers: A survey of International labour migration

E.Giddens), iqtisodiy va institutsional ratsionalizm (K.Marks, M.Veber, e.Dyurkgeym), “tortish-itarib chiqarish” nazariyasi(E.Ravenshtayn, S.Stafer, Z.Zelinski, G.Djerom, E.Li va boshq.); postindustrial jamiyat va tobelikda rivojlanish nazariyasi (A.Toffler, R.Darendorf, A.Turen, Dj.Xarris, M.Todaro,M.Kastel`s va boshq.); ijtimoiy mobillik nazariyasi (P.Sorokin, T.YUdina va boshq.) Ikkinci guruhga mezo- va makro omillarni (referent guruhlardagi ijtimoiy aloqalar va me’yorlar) e’tiborga oluvchi yondashuvlar kiradi: madaniy anklavlar va inson ekologiyasina zariyalari (R.Park, U.Tomas, F.Znanetskiy, R.Mak Kenzi); ijtimoiy kapital (sarmoya)nazariyasi (G.Louri, P.Burd`e, Dj.Koulman); tarmoqlar nazariyasi (M.Gordon, O.Xandlik vaboshqalar).

Biz tomonimizdan birinchi blokka kiritilgan yondashuvlar guruhini tahlil qilish shuniko’rsatdiki, ularning barchasi uchun quyidagi taxminlar umumiyl bo‘lishi mumkin:

- har bir potentsial migrant qarorlarni individual va erkin tarzda qabul qiladi;
- har bir potentsial migrant oldinda turgan ko‘chib o‘tishning barcha shartlari, ehtimoliyfoyda va yo‘qotishlardan to‘liq xabardor;
- har bir potentsial migrant muayyan moddiy foyda olishga intilishdan iborat bo‘lgan ratsional maqsadga ega;
- potentsial migrant shubhalanmaydi, xato qilmaydi va qarorlarni o‘z vaqtida qabulqiladi.

YUqorida sanab o‘tilgan holatlar ko‘p jihatdan munozara va bahsga sabab bo‘lishi mumkin. Haqiqatan ham, aholi migrantsion xulqining iqtisodiy, iqtisodiy-ijtimoiy va ijtimoiy-etnik determinantlari orasida aniq chegara tortish imkon mavjud emas. Bundan tashqari, ixtiyoriy va aniq maqsadli bo‘lmagan harakatlar o‘rtasidagi farq ham aniq emas. Jamiki insoniy xulq cheklangan. Individual erkinlik va avtonomlik doimo o‘zlari ijtimoiy kuchlar tomonidan determinatsiya qilingan tuzilmalar imkoniyatlari bilan o‘zaro bog‘liq. YOndashuvlarning biz tarkibiga tarmoqlar nazariyasini, ijtimoiy sarmoya nazariyasini, madaniyanklavlar nazariyasi va migrantsion jarayonlarning bosqichliligi nazariyasini kiritgan ikkinchi

guruhi ratsionallik – ijtimoiy harakatning o‘zgaruvchan tarkibiy qismi ekanligini tan oladi.

Individ nafaqat ratsional (oqilona), balki hissiy, qadriyatga oid va irratsional sabablarta’siriostida qaror qabul qilishi mumkin. Migratsiyaning sotsiologik nazariyalarining ikkinchi guruhi uchun asosiy aksiomalar quyidagilardan iborat:

- yashab ketishlik va integratsiya migrantning ijtimoiy sarmoyasiga bog‘liq bo‘ladi;
- individning migratsion biografiyasi qanchalik keng ko‘lamli bo‘lsa, u shunchalik serharakat bo‘ladi;
- migratsiya - bu aholining ijtimoiy hodisaga bo‘lgan reaktsiyasidir;
- migratsiya omillari ierarxiyasining o‘zgarishi ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy sharoitlarga bog‘liq.

Migratsiyani o‘rganishda tenderli yondashuvni qo‘llashga keladigan bo‘lsak, u holda bu ilmiy tahlilning nisbatan yangi yo‘nalishidir. Zamonaviy dunyoda “migratsiya ferminizatsiya”si global darajadagi aniq yo‘nalish sifatida tan olingan va bu to‘g‘ri nazariy baholashni talab etadi. Migratsiyani tadqiq qilishning tenderli yondashuvlari mazkur madaniyatda erkak va ayollargategishli deb hisoblangan tenderli rollar, ya’ni ijtimoiy rollarni o‘rganuvchi nazariyalardan odamlar, oilalar va institutlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlар, aloqalar va o‘zaro majburiyatlarni o‘rganuvchi nazariyalarga qadar rivojlanib bordi. Tenderli rollar va tenderli bo‘linish nazariyalari quyidagilarni ta’kidlaydilar:

- tender – ayollar va erkaklar jamiyatda bajarishi lozim bo‘lgan ijtimoiy rollarnibelgilab beradi;
- tender – jamiyatda produktiv (unumli) va reproduktiv (ya’ni inson hayotiga nisbatantakror ishlab chiqarish) mehnat o‘rtasida mehnat taqsimlanishining asosidir;
- tender – mehnat bozorining bo‘g‘imlarga bo‘linishining, jinsiga ko‘ra diskriminatsiya vasegergatsiyaning asosi;

- ishchi kuchini ishlab chiqarish va qo'llab-quvvatlashga qilingan sarf-harajatlar, reproduktiv mehnat e'tiborga olinmaguncha va unga xaq to'lanmagunga qadar iqtisodiyot uchunko'rinnas bo'lib qolaveradi.

YUqorida ta'riflab o'tilgan yondashuvlarning kamchiliklaridan biri erkaklar va ayollaro'rtasidagi munosabatlarning so'ndiruvchi, zulmga asoslangan tenderli munosabatlarini tordoirada tushunilishi, ya'ni erkak va ayollar orasidagi munosabatlarning (masalan, ona vao'g'illar, aka va singillar, ayol-boshliq va erkak-xodim o'rtasidagi munosabatlar kabi) ko'plabturlarini e'tiborga olmaganligi hisoblanadi. Bundan tashqari, shuni e'tiborga olish lozimki,tenderli munosabatlar har doim sinf, yosh, etniklik kabi boshq ijtimoiy tuzilmalashtirilganmezonlar vositasida ifodalanadi. YOsh migrant-u xizmatchisi ayol va u xizmat ko'rsatuvchi boyayol bo'lish tamomila turli narsalardir.

Migratsiyalarning tenderli o'ziga xosligiga bag'ishlanganijtimoiy tadqiqlarning kelgusidagi rivojlanishi rivojlanish nazariyasi va "Ayollar varivojlanish" («Women and Development») yondashuvi asoslangan iqtisodiyot gloaballashuvinazariyalari bilan chambaras bog'liq."Ayollar va rivojlanish" yondashuvi quyidagi g'oyalarni ilgari suradi:

- iqtisodiy rivojlanish ayollarni mehnat bozoriga tengsiz sharoitlarda qamrab

olinishini, ularning marginallashuvi g'oyasini ilgari suradi. Ayollar imkoniyatlari bozor bandligining chekka shakllari bilan cheklangan;

- iqtisodiy o'sish va oylik maoshdagi tenderli tengsizlik o'rtasida ijobiy o'zaro munosabat mavjud;

- ayollar va erkaklar tomonidan bajariladigan, haq to'lanadigan va haq to'lanmaydigan mehnat hajmi o'rtasigai nisbat o'zgaradi;

- genderli-segregirlangan mehnatning (yoki ayollar reproduktiv mehnatining) shaxsiyuyfaolligidan bozor bandligiga, so'ngra esa rivojlangan G'arb mamlakatlarining zamonaviy iqtisodiy tizimiga ko'chib o'tishi sodir bo'ladi.

Garchi migratsiyaning tenderli jihatlarini o'rganuvchi zamonaviy tadqiqtchilar essentsializmgabo'lgan moyillikdan xalos bo'lishga va faqatgina

ayollarining migraion tajribasini o‘rganishgaintilsalarda, ular har doim ham buning uddasidan chiqsa olmaydilar, biroq mazkur yo‘nalishdamuayyan qadamlar qo‘yilmoqda.

Aksariyat iqtisodchi ekspertlarning fikricha, hozirgi kunda mehnat unumdarligi oshirilgan taqdirda ham, mehnat resurslarini migratsiya hisobidan keng ko‘lamda to‘ldirmasdan turib, yaqin keljakda rejalashtirilayotgan iqtisodiy yuksalishni ta’minlab bo‘lmaydi. Misol uchun, Rossiya migrantlar mehnatiga borgan sari ko‘proq ehtiyoj sezaveradi. 2000-yillarning boshida aytilgan “Rossiya iqtisodiyoti migrantlar mehnatini jalb etmasdan yashay olmaydi!”, degan qat’iy fikr bugun haqiqatga aylanmoqda. Hozir Rossiya Federatsiyasining ko‘plab hududlarida ishchi kuchi etishmasligi katta muammoga aylangan. 2015-yilda Rossiyada mehnat resurslari 8 million, 2025- yilda esa 18-19 million kishiga kamayadi. SHu bilan bir vaqtda, migrant ayollar ekspluatatsiya qilish savdosi qurboni bo‘ldi, xavfsiz va huquqiy migratsiya uchun esa etarli imkoniyatlarini yo‘q, deb ko‘rsatadi etiladi.<sup>19</sup>

O‘zgarishlarga shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ayollar migratsiyasi migratsion donor bo‘lgan jamiyatlarda ahamiyatli ravishdagи o‘zgarishlarga imkoniyat yaratishi mumkin.

Bugungi kunda ayollar migratsiyasi butun jahon miqyosida jadal davom etmoqda desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Hozirgi kunda oldingiga qaraganda xalqaro migrantlarning soni ancha ko‘p, yaqin keljakda ularning soni yanada oshishi aniq. Bu deyarli er yuzidagi barcha mamlakatlarga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi va ko‘rsatishda davom etadi. Migratsiya rivojlanish, kambag‘allik, va inson huquqlari kabi boshqa global masalalar bilan chambarchas bog‘liqdir. Migrantlar ko‘pincha jamiyatning eng ishbilarmon va xarakatchan a’zolari xisoblanadi.

Tarixga qaraydigan bo‘lsak, migratsiya iqtisodiy o‘sishga, millatlar paydo bo‘lishiga, madaniyatlarning boyishiga ko‘mak bo‘lib kelgan. SHu bilan birga migratsiya muxim masalalarni xam o‘z ichiga oladi. Ba’zi migrantlar ekspluatatsiya qilinadi va ularning inson xuquqlari poymol qilinadi, ular boradigan

<sup>19</sup> Ayollar va xalqaro miqyos. Bir parcha umid uchun. 2006 yilda dunyodagi aholi soni - Nyu-York, 2006 y. - 128 bet.

manzil mamlakatlarda integratsiya qiyin bo‘lishi mumkin. Migratsiya migrantlarning o‘z davlatlarini muhim malakali va yaxshi kadrlardan maxrum etishi mumkin. Mana shu va boshqa ko‘plab sabablarga ko‘ra migratsiya jarayonini o‘rganish muhimdir.

Xalqaro migratsiyaning qisqacha tarixiga e’tibor beradigan bolsak, migratsiyaning tarixi Afrikaning Rift vodiysida insoniyatning paydo bo‘lishi bilan boshlanadi, ya’ni taxminan 1.5 million yil va eramizdan avvalgi 5000 yillar orasida Xomo erekodus va Xomo sapienslar ilk Evropaga va keyinchalik boshqa qit’alarga tarqala boshlagan. Kadimgi dunyoda Greklar koloniysi va Rimliklarning kengayishi migratsiyaga bog‘lik bo‘lgan va Evropadan tashqaridagi muxim ko‘chishlar xam Mesopotamiya, Inka, Indus va Zoular imperiyalari bilan bog‘liq bo‘lgan. Ilk tarixdagi boshqa muhim migratsiyalar Vikinslarni va krestonoslarning Muqaddas Erga yurishini o‘z ichiga oladi.

Migratsiya tarixi bo‘yicha mutaxassis Robin Koxenning fikriga ko‘ra<sup>20</sup> yaqin tarixda esa, boshqacha qilib aytganda oxirgi ikki uch asr ichida bir nechta muhim migratsiya davrlarini yoki xodisalarini kuzatish mumkin. Balki eng muxim migratsiya hodisasi deb XVIII va XIX asrlardagi qullarning kuch ishlatish yo‘li bilan ko‘chirilishini aytish mumkin. Hisob-kitoblarga ko‘ra 12 million odam kuch ishlatish yo‘li bilan asosan Afrikadan YAngi Dunyoga ko‘chirilgan, ammo kamroq odam Xind okeani va o‘rta Er dengizi orqali ko‘chirilgan. Bu migratsiyaning xajmidan tashkari yana bir muxim tomoni shundaki, bu haligacha qullarning avlodlari va asosan kelib chiqishi Afrikalik bo‘lgan Amerikaliklarga nisbatan o‘z ta’siriga ega. Quldorlikning tugatilishidan so‘ng, Xitoy, Hindiston va YAponiyadan juda ko‘plab odamlar shartnoma asosida ko‘chishdi, Hindistonnинг o‘zidan 1,5 million odam ko‘chdi. Ular Evropa mamlakatlariga tegishli plantatsiyalarda ishlashda davom etish uchun ko‘chishdi.

Evropaning kengayishi xam Evropaga keng ko‘lamda o‘z ixtiyoriga ko‘ra qayta o‘rnashish bilan Bog‘liq, asosan Britaniya va Amerika koloniylariga. Britaniya, Niderlandiya, Ispaniya va Fransiya kabi kuchli savdo aloqalariga ega

---

<sup>20</sup>Ayollar va xalqaro miqyos. Bir parcha umid uchun. 2006 yilda dunyodagi aholi soni - Nyu-York, 2006 y. - 128 bet.

davlatlar o‘zlarining odamlarini chet mamlakatlarga ko‘chishini qo‘llab quvvatlashdi, nafaqat ishchilarni, balki dehqonlar, boshqacha fikrlovchi askarlar, maxbuslar va etimlarni ham. Migratsiyaning kengayishi asosan XIX asrning oxirida koloniyaga qarshi xarakatlarning kuchayishi bilan o‘z nixoyasiga etdi, va keyingi 50 yil yoki undan sal ko‘prok vaqt ichida Evropaga qaytish oqimi kuzatildi, masalan, PIEDS nors deb ataluvchilarning Fransiyaga qaytishidir.

Migratsiyaning keyingi davri AQSH ning sanoati juda rivojlangan mamlakat sifatida ko‘tarilishi bilan belgilanadi. SHimoliy, Janubiy va SHarqiylar Evropaning iqtisodiy turg‘un xududlaridan va repressiv siyosiy tizimlaridan ko‘chgan millionlab ishchilar 1850-yildan 1930-yildagi Buyuk Depressiyagacha AQSHga ketishda davom etdilar, ocharchilikdan ko‘chgan irlandlarni esa gapirmasa ham bo‘ladi. Bu migrantlarning qariyb 12 millioni immigratsion tekshiruv uchun Nyorkdagi ellis oroliga kelib tushishdi. Migratsiyaning keyingi katta davri ikkinchi jahon urushidan keyin Evropa, SHimoliy Amerikava Avstraliyadagi iqtisodni tiklash uchun ishchi kuchi zarur bo‘lganligi tufayli sodir bo‘ldi.

Masalan, bu ko‘plab Turk migrantlarining Germaniyaga, SHimoliy Afrikaliklarning Fransiya va Belgiyaga kelishi bilan bog‘liq. Bu yana taxminan bir million Britaniyaliklarning Avstraliyaga migratsiya qilishi davri hamdir. Ularning o‘tishi va 10 funt miqdorida pul olishi, Avstraliya hukumati tomonidan yangi keluvchilarni jalb etish maqsadidagi harakati bo‘ldi. O‘sha vaqtda mustamlakadan chiqish hali ham dunyoning boshqa burchaklarida migratsion ta’sirga ega edi, bu asosan 1947-yildagi millionlab hindlar va musulmonlarning Hindistonning ajralib chiqishi natijasidagi va Isroiarning tashkil qilinishi bilan yaxudiy va falastinliklarning ko‘chishi bilan bog‘liq. AQSHda 1990-yillarning boshigacha davom etgan bo‘lishiga qaramasdan, Evropada xalqaro migrantlarning ko‘chiga talab 1970-yillarga kelib tugagan edi. Global iqtisodning boshqaruvchi kuchi Osiyoga tomon qocha boshladi, chunki bu erlarda migrantlarning mehnatiga bo‘lgan talab hali ham o‘sib bormoqda. Bu bobda keyinroq ko‘ramizki, boshpana qidiruvchilar, qochoqlar va nomuntazam migrantlarning xarakati oxirgi 20 yil ichida sanoatlashgan dunyoda juda sezilarli darajaga etdi.

Xalqaro migrantsyaning yaqin tarixini sharxlashning maqsadi faqatgina migrantsyaning yangi fenomen ekanligini ko'rsatishdan iborat emas. Bu yana shu bobda uchraydigan mavzularni xam ko'rsatishga mo'ljallangan. Migratsiya inqilob, urushlar, imperiyalarning paydo bo'lishi va qulashi kabi global hodisalarga bog'liq bu yana iqtisodiy jihatdan kengayish, millat paydo bo'lishi va siyosiy o'zgarishlar kabi muhim o'zgarishlar bilan ham bog'liq, bular esa o'z navbatida nizolar, ta'qib va ko'chirish kabilar bilan ham bog'liq.

Migratsiya tarixda ham sodir bo'lgan va bugungi kunda ham muhim ahamiyatga egadir. O'zbekistonliklarning uzoq xorijiy davlatlarda borib ishlash yoki yashash uchun ma'qul keladigan yana bir mamlakat – bu Buyuk Britaniya va Germaniya davlatlaridir. Ammo ushbu davlatlarga chiqish chiqib ketish imkoniyati kamligi bois, cheklangan muddatlarga ayrim odamlargina erisha oladilar. Bir mahallar Toshkentdagi mashxur «SABO» nomli NNTda ishlagan bir mutaxasis qiz Qirg'izistonlik yigitga turmushga chiqib, mavjud belgilangan qoida asosida Angliyaga chiqish imkoniyatiga ega bo'lgan. Sababi, u nafaqat O'zbekistonda, balki o'rta Osiyo davlatlarida o'zining va farzandining kelajagini yorqin tasavvur eta olmasligini bildiradi. Nemis filologiyasi fakultetida ta'lim olayotgan boshqa bir qiz esa. DAAD granti bo'yicha Germaniyada bir yil o'qishni davom ettiradi, qaytib kelgach, afsusda ekanligini va qaysi yo'l bilan bo'lsa ham yana Germaniya yoki qaysidir nemis tilida gaplashadigan davlatlarning biriga ketishligini ma'lum qildi.

Bu kabi yoshlarni bugungi kunda O'zbekistonda 10.000 lab uchratish mumkin. Oliy ma'lumotga ega bo'lman, turmush darajasi og'irroq bo'lgan yoshlar ko'pincha qiz-juvonlar Turkiya, Janubiy Koreya va Birlashgan Arab Amirliklariga (BAA) borib ishlashni ma'qul ko'radilar. Bu mamlakatlar ichida tili, mentaliteti yaqin bo'lgan Turkiya alohida O'rin tutadi. Suhbatlarimiz vaqtida respondentlarimiz o'zbek qizlari bir muncha tarbiyali, dunyoqarashi yuqoriroq bo'lsa, biror bir xonadonga bola boqish, xizmatkor yoki oshpaz bo'lib yollanadilar. Aksariyati maishiy xizmat ko'rsatish sohasida, oshxonalarda, savdo do'konlarida eng og'ir ishlarni qilishga majbur bo'ladilar. Ba'zi birlari aldanib qolib, foxishalik bilan shug'ullanishlari mumkinligi respondentlar tomonidan ta'kidlandi. Turkiyaga

o‘xshagan holat BAAda ham takrorlanadi, ammo bu mamlakatga ko‘proq sarmoyasi yuqori bo‘lgan O‘zbekistonliklar tashrif buyurishar ekan. Migratsion jarayonlar ichida, tabiiyki savdo (chelnok) bilan shug‘ullanuvchilar ko‘pchilikni tashkil etadi. Faqatgina ularning migratsion jarayonlardagi ishtiroki bir kundan bir necha O‘n kungacha davom etishi mumkin. Bu toifadagi migrantlar asosan Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Xitoy, Turkiya, BAA, eron, Hindiston va Janubiy Koreya mamlakatlariga borishadi. Migratsiyaning bu turida O‘zbeklar bilan birgalikda ko‘proq koreyslar, qisman rus va tatarlar ishtirok etishadi.

GRIN KARD sohibi bo‘lgan oliy ma’lumotli yigit bir yil AQSHda ishlab, qisqa muddatli kanikulga kelganda, u bilan suxbatlashdik. Agar O‘zbekistonda oylik maosh yaxshi bo‘lganda, edi men hech qaerga ketmas edim. Sababi, noqulay iqlim, notanish madaniyat, zerikarli turmush tarzi odamni ruhiy jihatdan holdan to‘ydiradi. Ingliz tilini bilmaslik, kishini eng og‘ir ishlarni bajarishga majbur qiladi.

O‘zbeklar asosan o‘ta og‘ir ishlarda ishlaydilar, masalan, hojatxonalarini tozalash, benzin quyish shaxobchalarida mashinalarga yonilg‘i quyish, oshxonalarida, ko‘cha tozalash, aeroport, vokzal, avtovokzallarda arava sudrash va shu kabilar. Kimdir tilni yaxshi bilsa, uning ishi bir muncha yaxshiroq, masalan taksist, yoki avtobus haydash, qaysidir bir firma yoki tashkilotda tarjimon, ish yurituvchi va shu kabilar.

Og‘ir mehnat va moddiy imkoniyatlarning cheklanganligi O‘zbeklarni bir-biriga unchalik ham yaqinlashtirmaydi, tarqoqlik kuchli, bir odamdan jiddiy yordam kutishni o‘zi befoyda, yashash uchun kurash ketadi. Men soatlab ishlayman, ba’zan dam olish kunlarisiz 12-14 soat – deb javob berdi respondent.

Xuddi shu kabi, g‘arb sotsiologlarining ayollarning zamonaviymigratsion jarayonlardagi o‘rnini o‘rganishga bag‘ishlangan ayrim ishlarida ayollar har doim ham “yutqazgan tomon” bo‘lmasligi tan olingan. Erkaklarnin muayyan guruhlari xavf vamarginalizatsiyaga ko‘proq duchor bo‘lishlari mumkin. Masalan, iqtisodiy o‘zgarishlar davridamadaniyat tomonidan belgilab qo‘yilgan boquvchi rolini bajarish imkoniyatiga ega bo‘lmasgan erkaklar. SHunday qilib, tadqiqotchilar

ayollarning migratsion jarayonga qamrab olinishi hardoim ham o‘ta xavfli va yashirin diskriminatsiya (disfunktsiya) bilan bog‘liq emas, balkishuningdek, muayyan ijobiy oqibatlarga ijobiy holatlarga) ham ega bo‘lishi mumkin, degan xulosaga keladilar. Zamonaviy migratsion almashinuvlarda tenderomilining o‘ziga xos o‘rninigntan olinishi shuni taqozo qiladiki, bugungi kunda tender migratsiyani turlarga ajratishningasoslaridan biriga aylanib bormoqda, muvofiq ravishda tender nuqtai nazaridan o‘ziga xosmigratsion oqimlarni identifikatsiya qilish mumkin.

Ilmiy adabiyotda migratsion ko‘chishlarni turlarga ajratishda ko‘pincha bir-biri bilan kesishuvchiko‘plab asoslar qo‘llaniladi. SHunday qilib, ko‘chishlar tipologiyasi asosiga yashash muddati, joyi,geografiyasi, migratsiya maqsadi, kasb, migratsion ko‘chish ishtirokchilari (aktorlar), ular orasidagi munosabatlar, siyosiy tabiat, migrantlarning huquqiy maqomi, madaniyemasofa va h.k.lar qo‘yiladi (G.Feyrchayld, S.Kastlea, Fr.Dyuvel` va boshqalar.). Aholi migratsionharakatining nisbati va o‘zaro munosabati turi yoki o‘ziga xos ko‘rinishini tenderli tarkibiyqism nuqtai nazaridan ta’riflash ikki asosiy yondashuv doirasida amalga oshirilishi mumkin.

Birinchi yondashuv (an’anaviy) turli migratsion oqimlarda ayollarning soni, roli va o‘rninianiqlashni taqozo qiladi. Bunda ayollar migratsiyasi migratsiyaning o‘ziga xos ko‘rinishi yoki alohida turi sifatida o‘rganilmaydi. Migratsiyalarning barcha mavjud klassifikatsiyalari, mazkuryondashuvga ko‘ra, genderli nuqtai nazardan neytral yoki universal tabiatga ega va asosanayollar kabi, erkaklar migratsion oqimlarini tahlil qilish uchun ham qo‘llanilishi mumkin.

SHuningdek, tenderli o‘lchashlarni migratsiya klassifikatsiyasiga kiritishning, migratsiyaningfaqatgina erkaklarga xos bo‘lgan turi va migratsiyaning aralash oqimlari bilan bir qatordafaqatgina ayollarga xos bo‘lgan turlarini ajratib ko‘rsatish imkonini beruvchi ikkinchi usuliham mavjud. Bu jins, shuningdek tenderli rollar nafaqat erkak va ayollarning aniq migratsionoqimdagি miqdoriy nisbatlarini belgilab beruvchi, ijtimoiy jihatdan muhim ahamiyatga egaligini, balki migratsiya tabiat va uning yo‘nalishini ham nazarda tutadi.

Muayyan migratsion oqimda ayollarning son jihatidan ustunligi ikkinchi yondashuv doirasidademografik yoki tasodifiy sabalarning oqibati sifatida emas, balki ob'ektiv ijtimoiy vaiqtisodiy jarayonlarning, shuningdek, jamiyatda ayollar va erkaklarning xulq modellari vabandlik turlari haqida shakllanib ulgurgan tenderli tasavvurlari va stereotiplariningnatijasi sifatida ham o'rganiladi.

Biroq, migratsiyaning faqatgina ayollarga xos bo'lgan, masalan, bandlikning uy xizmatchisi,tarbiyachi, jinsiy va shunga yaqin bo'lgan va boshqa xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgano'ziga xos turlarini aniqlash migratsiyaning "klassik" tipologiyalarini qo'llash imkoniyatini rad etmaydi. Masalan, migratsiyaning o'ziga xos ayollar oqimida yoshga oid, etnik, irqiy, ta'lif vakasbiy guruhlarni ajratib ko'rsatish mumkin. SHuningdek, faqatgina ayollar migratsiyasining aniqoqimi migrant-ayollarning huquqiy prizmasi (qonuniy yoki noqonuniy maqom) orqali, ixtiyorilik nuqtai nazaridan (ixtiyoriy, majburiy, trafik) va hokazolar nuqtai nazaridan.

SHunday qilib, ikkinchi yondashuv doirasida ayollar migratsiyasi o'zining o'ziga xos jihatlari vaxarakterli ko'rsatkichlariga ko'ra ajratib ko'rsatiladi, va ayollar migratsiyasining ajratib olingan o'ziga xos turi doirasida esa migratsiyaning klassik tipologiyalarini qo'llagan holda keyingi tahlillari amalga oshirilishi mumkin.

Migratsiya feminizatsiyasining turli jihatlari o'rganilganda, va faqatgina ayollar migratsionoqimlari ajratib ko'rsatilganida tadqiqotchilarning diqqat markazi ayollar mehnatmigratsiyasining, ayollar xalqaro migratsiyasining turli ko'rinishlari, shuningdek, majburiy migratsiyaning tenderli jihatlari va ayniqsa, trafik va noqonuniy migratsiya muammosiningo'ziga xosligiga qaratiladi.Tenderli o'lchashlarni migratsiya klassifikatsiyasiga qamrab olishga bo'lgan birinchi va ikkinchiyondashuv o'rtasidagi asosiy farq shundan iboratki, birinchi holatda jins turni hosil qiluvchijihat sifatida emas, balki faqatgina qo'shimcha miqdoriy xususiyat sifatida ifodalanadi. Ikkinci holatda esa jins va tender turlarga ajratuvchi jihatlar sifatida ifodalanadi.

Tenderning migratsion oqimlarni klassifikatsiyasi uchun turlarga ajratuvchi xususiyatisatidagi ahamiyatining tan olinishi ob'ektiv jihatdan “migratsiya feminizatsiyasi”ning xalqaroko‘lamda o‘sib borayotganligi bilan bog‘liq. Xaqiqatan ham, zamonaviy migratsion oqimlarningto‘xtovsiz feminizatsiyasi – zamonaviy migratsion harakatda globallashuv, murakkablashish, mehnatbozorining kengayishi va diversifikatsiyasi bilan bir qatorda rivojlanib borayotgan ahamiyatliyo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda ayollar jamiki xalqaro migrantlarning deyarliyarmini tashkil etadi, biroq bugungi kunda butun dunyoda kuzatilayotgan “migratsiyaningfeminizatsiyasi” jarayoni migratsion oqimlarda ayollar miqdorining oddiygina songa oidko‘payishidan ko‘ra ko‘proq narsadir. Qanday undovchi sabablar ayollarni migratsiya haqidagiqarorni qabul qilishga undaydi? Xalqaro migratsiya feminizatsiyasining muhim omili “bandlikning an’anaviy ayollar turlari” ga bo‘lgan global talabning ortib borishi hisoblanadi. Nima“erkaklar” yoki “ayollar” ishi ekanligi haqidagi stereotip tasavvurlar erkak va ayollar nima sababdan migratsiya qilishi, ular qanday ish va qaysi shartlarga muvofiq ish izlashiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

## **1.2.Ayollar mehnat migratsiyasi yuzaga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy omillari**

Dunyoning aksariyat davlatlarida xorijlik ishchi kuchidan foydalanishga asosiy sabab iqtisodiyotning ba’zi sektorlari va mintaqalarda ayrim kasb hamda ish turlari bo‘yicha ishchi kuchining etishmaslidigkeitdir. Mazkur ishchi kuchlaridan, avvalambor, mehnatga kam haq to‘lanadigan, muayyan malaka talab etmaydigan va ish joylarida foydalaniladi.

Davlatlarning mehnat migratsiyasiga doir yuritayotgan hozirgi siyosati, birinchi galda, mamlakat ichida ishsizlikka qarshi kurashishga qaratilgan. Negaki, iqtisodiyotda ichki migratsiya degan tushuncha ham mavjud. SHu sababli mamlakatlar, avvalo, o‘z fuqarolarini ish bilan ta’minlashga alohida e’tibor qaratadi.

Aytish mumkinki, uzoq xorij mamlakatlariga bo‘ladigan migratsiyaning asosiy ko‘rinishi - bu intellektual migratsiya. Ko‘plab tabiiy fan vakillari bo‘lgan yosh-yigit qizlar xorijga jiddiy intilishadi. O‘zlariga aniq maqsad qo‘yganlari kompyuter dasturlari bo‘yicha mutaxassis bo‘lishga intiladilar. Ammo bundaylar sanoqli.

O‘zbekistonliklarning MDH davlatlariga migratsiyasi o‘tgan asrning 90-yillarida boshlangan bo‘lsa-da, uning eng yuqori cho‘qqisi ta’kidlaganimizdek 2000 -yillarda avj oldi. Ayni shu vaqtga kelib boshqa millat vakillari bilan bir qatorda mahalliy aholi, ya’ni o‘zbeklarning mehnat migratsiyasidagi ishtiroki boshlandi. Avvaliga Qozog‘istonda paxta terimi mavsumi vaqtida yaxshi haq to‘lanar ekan, degan maqsadda Farg‘ona vodiysidagi ayollar sentyabr va oktyabr oylarida qo‘shni Qozog‘iston Respublikasining Ettisoy, Maqtaaral, Turkiston kabi paxta etishtiradigan tumanlariga ba’zan alohida, ba’zan oilaviy, to‘g‘rirog‘i yuqori sinflarda o‘qiydigan qizlari bilan yollanib ishga keta boshladilar.

Tabiiyki, bunda jonbozlik ko‘rsatadigan «mehribon» vositachilar ham topilib qoldi. Aynan shunday vositachilar, ya’ni odam savdosi bilan shug‘ullanuvchilar hisobiga, yashirishning hojati yo‘q ko‘plab qiz va ayollar ornomusi toptaldi, ko‘plarining oilasi nobud bo‘ldi. Bugungi kunda ayollar migratsiyasi butun jahon miqyosida jadal davom etmoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Sobiq ittifoqning parchalanishi sababli vujudga kelgan migrant-ayollar (“vatanga qaytish”) bugunikkinci darajaga o‘tib bormoqda. YAngi iqtisodiy migrantlarning, shu jumladan ayollarining hamijtimoiy tarkibi o‘zgacha bo‘lib bormoqda. Agar avval bu tatarlar yoki ruslar bo‘lgan bo‘lsa, bugun bu yangi mustaqil davlatlarning maqomga ega bo‘lgan irq vakillari: o‘zbeklar,tojiklar va boshqalar bo‘lib bormoqda. Rossiya Federatsiyasiga O‘rta Osiyo respublikalaridan mehnat migrantlarisifatida, o‘z oilasidan uzilgan holda kelgan migrant-ayollarining taqdiri patriarxaljamiyatlardagi genderli rollarning o‘zgarishlarini namoyon qiladi.

Bozor islohotlari, turmushdarajasining tushib ketishi, kambag‘allik va ishsizlik SHarq ayollarini ijtimoiy bandliksohasiga qamrab olinishining sovet

hukumati siyosatidan kam bo‘lмаган "samaraga ega bo‘лганеркинлик манбаси" сифатида namoyon bo‘ldi. Bugungi kunda O‘rta Osiyolik ayollar erlari bilanbirga yoki ayrim hollarda o‘zlari yolhiz holda ham Rossiyaning turli hududlariga pul topish maqsadida safarga chiqmoqdalar.

Migrant-ayollar uylariga jo‘natayotgan pullar butun bir oilani qashshoqlikdan qutqargan holdabiqish va ta’minlash imkonini bermoqda. Moliyaviy o‘tkazmalar bilan bir qatorda migrantayollarning ijtimoiy o‘tkazmalari (g‘oyalari, ko‘nikmalari, munosabatlari, bilimlari va h.k.),ijtimoiy kapital (sarmoya) orttirish ham sodir bo‘lmoqda. Ayollar shuningdek, o‘zlarining tajriba va manbalarni almashinish bilan shug‘ullanuvchi shaxsiy migrantlar tarmog‘ini yaratishlarihamda yangi migrantlarga yordam ko‘rsatishi va ularni qo‘llab-quvvatlashlari (beg‘araz yordamkabi, pullik to‘lovlar asosida) mumkin.

Tenderli omil iqtisodiy migratsiya jarayonlarining ahamiyatli ravishdagi tarkibiy qismigaayylanib bormoqda, va shu sababli ayollar mehnat migratsiyasini optimallashtirishga yo‘naltirilganquyidagi yo‘nalishlari bo‘yicha tizimli ishlar olib borish zarur. Tavsiyalar sifatida quyidagi takliflar kiritilgan:

- statistik qaydnomalar tizimiga migrant-ayollarning ijtimoiy-demografik xususiyatlarini (millati, ma’lumoti, kasbiy malakaasi, oilaviy maqomi, farzandlarining mavjudligi, yoshi va h.k.) kiritish;
- hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish rejalarini ishlab chiqishda xorijga chiqib ketayotgan migrant ayollarning sonini va statistic ko‘rsatkichlarini aniqlash, migrant-ayollarning ish o‘rinlari sonini prognoz qilish;
- O‘zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi qoshidagi tashqi mehnat migratsiyasi agentligi faoliyati doirasida ayollarning noqonuniy migratsiyasi, trafiki va odam savdosining oldini olishni tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqish;
- vakolatli boshqaruv organlarida odam savdosidan aziyat chekkan migrant ayollarining realibilitasiya va adaptatsiya qilish borasidagi faoliyatini yanada kengaytirish shuningdek, migrant-ayollarni huquqiy vapsixologik qo‘llab-quvvatlashda (va/yoki mavjudlariga yordam ko‘rsatish) ko‘maklashish;

- muntazam ravishda OAVlarida ayollar mehnat migratsiyasi va odam savdosi bilan bog‘liq muammolarni muhokama qilish, mazkur muammolar bo‘yicha ijtimoiy ko‘makni tashkillashtirish.

Hozirgi kunda iqtisodiy taraqqiyot nafaqat jahon tendensiyalari va ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlari bilan, balki turli davlatlar milliy iqtisodiyotlarining o‘zaro faol hamkorligiga tobora bog‘liq bo‘lib bormoqda. Buni iqtisodiy global lashuvning yaqqol ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan aholi migratsiyasining tobora kuchayib borayotganidan ham bilish mumkin. Migratsiya mamlakat taraqqiyoti va ijtimoiy o‘zgarishlarining omillaridan biri bo‘libgina qolmay, ayni paytda doimiy nazoratni talab qiladigan ko‘plab muammolarni ham keltirib chiqarmoqda.

Butun dunyoda oliy ma’lumotga ega bo‘lmagan ayollar ko‘pincha kam malaka talab qiladigan lavozimlarda mehnat qiladilar. Turli davlatlarda mehnat qilayotgan ayol mehnat migrantlarining aksariyati uy xizmatchiligi bilan mashg‘ul bo‘ladilar. Uy xizmatchilari mehnati keng tarqalgani bilan uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati etarli darajada anglab etilmagan. qonununchilik bazasi yaratilmagani bois uy xizmatchilariga taaluqli mehnat munosabatlari «latent»ligacha qolmoqda.

Uy xizmatchisi bo‘lib ishlayotgan ayollar mehnatidan noqonuniy foydalananish, ularni mehnat vazifalarini bajarish chog‘ida kamsitish, xaqrat qilish, erkini cheklab qo‘yish xollari qayd etilmoqda. Bularning barchasiga ko‘pchilik mamlakatlarda uy xizmatkorlari mehnatining huquqiy asoslari ideal darajada emasligi, bandlikning norasmiy, yashirin shakli bo‘lib qolayotgani, bunday munosabatlar qonun bilan tartibga solinmayotgani yoki kam e’tibor qaratilayotgani sabab bo‘lmoqda.

Uy xizmati bilan bog‘liq, munosabatlar millionlab insonlar uchun qadimiyligi mashg‘ulot turi, tirikchilik manbai sanaladi. Uning ildizlari umumbashariyat tarixining quldorlik, kolonializm va mehnatga majburlashning boshqa shakllari ko‘rinishidagi qatlamlariga borib taqaladi.

Xalqaro mehnat tashkiloti 2011-yili “Uy xizmatchilari to‘g‘risidagi 189-konvensiyasini e’lon qildi. Mazkur konvensiya uy xizmatchilarining mehnat munosabatlariga oid asosiy normalarini qamrab olgan. Xalqaro mehnat tashkiloti

ijtimoiy ximoya departamenti boshlg‘i X.Ortizning ma’lumotlariga ko‘ra, 2016-yilda dunyo bo‘yicha uy xizmati bilan bog‘liq munosabat ishtirokchilarining 80 foizini ayollar tashkil qilgan.

Mehnat munosabatlarining uy xizmatchilari bilan bog‘liq sektoriga xos belgalar kadrlar quunimsizligi, mehnat shartnomasining tuzilmasligi, mehnatga xaqning ko‘pincha natura shakida to‘lanishi, ish xaqining o‘z vaqtida to‘lanmasligi bilan xarakterlanadi. Uy xizmatchilari ijtimoiy himoyasiga oid muammolar nafaqat rivojlanayotgan mamlakatlarda, balki sanoati rivojlangan ba’zi davlatlarda ham kuzatiladi. Masalan, Italiyada mavjud uy xizmatchilarining 60 foizi o‘z faoliyatini rasmiylashtirmagan holda olib boradilar. Ispaniya va Fransiyada uy xizmatchilarining 30 foizi ijtimoiy ta’milot dasturlari bilan qamrab olinmagan<sup>21</sup>.

Ish beruvchining xonardonida yashaydigan uy xizmatchilari mehnatini tartibga solish o‘ziga xos xususiyatga ega va bunda ish haqining muayyan qismi uy ijara xaqi va oziq-ovqat xarajatlari sifatida, natural holida beriladi. Ammo ba’zi mamlakatlarning mehnat qonunchiligi uy xizmatchisiga natural hxolida beriladigan va ish beruvchi ushlab qoladigan ish xaqqi maoshdorining eng ko‘p chegaralarini belgilab qo‘ygan bo‘lib, bunda uy xizmatchisining manfaatlarini muhofaza qilish nazarda tutiladi (jumladan, Irlandiyada oziq-ovqat va turar joy xarajatlari xodimning kundalik yoki xafkalik ish xakidan belgilanganidan ko‘p bo‘lmagan holda ushlab qolinishi mumkin (Amaliy qoidalar majmuuning 5.7-bandi). Urugvayning 2006 yil 27 noyabrdagi dekreta 11-moddasiga ko‘ra ovqat va turar joy xaqi sifatida ushlab qolingga summa xodim ish xaqining 20 foizidan (fakat ovkat berilgan bulsa - 10 foizidan) ortib ketmasligi kerak.

Uy xizmatchilarining zavod yoki fabrikadagidek mehnat jamoasi bilan oshkora ishlamasligi, mehnat faoliyati ko‘zdan narida oilaning ichida amalga oshirilishi tufayli ularning huquqlari ta’minlyotganini aniqlash mushkul. Buni qonun bilan tartibga solish murakkab kechadi, uy xizmatchilarini ish beruvchi oldida zaif va himoyasiz qilib qo‘yadi. Uy xizmatchilari, deganda jismoniy shaxs, ish beruvchiga ishga yollanish asosida shaxs yoxud oila yumushlari bilan mashg‘ul

<sup>21</sup><[http://www.moscow/news/WCMS\\_459940/lang-ru/index.htm](http://www.moscow/news/WCMS_459940/lang-ru/index.htm)

bo‘lgan xodimlar nazarda tutiladi. Uy xizmatchilari turli maqsadlarda ishga yollanmoqda. Bunday sabablarni shartli ravishda bir necha guruhga ajratish mumkin. Ular, birinchidan, oilaning maishiy ishlarida yordam berish uchun (bog‘bonlik, oshpazlik, enagalik, xaydovchilik, oila hamshirasi va boshqalar) ikkinchidan, qishloq, xo‘jaligi ishlarida foydalanish uchun (sabzavotlar ekish, ularni parvarishlash, yig‘ib-terib olish va boshqa ishlar) ishga yollanadilar.

Uy xizmatchilarini ishga yollash, ularning mehnat sharoitlari, ish beruvchi tomonidan mehnat qonunchiligi talablarini bajarilish axvoli, ayni paytda, ish beruvchi va uning oila a’zolari hayoti, salomatligi mulkiy xamda boshqa nomulkiy shaxsiy manfaatlarining muxofaza etilishi vakolatli organlar tomonidan qat’iy kuzatib borilishiga imkon beradigan huquqiy va tashkiliy mexanizmlar yaratishli lozim. Bunday ishlarga qisqa muddatda ishga yollash vaqtinchalik bir martalik ishlar (xalq tomonidan mardikor bozori deb yuritiladigan ish kuchi bozori) tarzida amalga oshiriladi hamda bunday munosabatlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2001-yil 18 maydagি № 223-sonli «Vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta’minalash markazlarini tashkil etish to‘g‘risida»gi qarori bilan tasdiqlangan «Vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta’minalash markazi to‘grisidagi namunaviy nizom» bilan tartibga solinadi<sup>22</sup>.

Bir martalik vaqtinchalik ishlar o‘zining huquqiy tabiatiga ko‘ra fuqarolik huquqiy munosabat sanaladi va shu sababli bu munosabatlarga Fuqarolik kodeksi va boshqa fuqarolik qonun hujjatlarining maishiy pudrat shartnomasiga doir normalari tatbiq etiladi. Bir martalik vaqtinchalik ishlarning eng uzoq muddati qonunchilikda belgilab qo‘yilmagan va shu sababli bunday ishlar bilan uy xizmatlarini bajarish uchun qabul qilingan xodim va ish beruvchi ayrim fuqaro o‘rtasidagi munosabatlarni baholash chog‘ida qiyinchiliklar vujudga keladi. Bunday munosabat ishtirokchilari o‘z manfaatlari nuqtai nazaridan bir martalik vaktinchalik ish sifatida yoxud aynan ushbu munosabatni uy xizmatchisi bilan o‘rnatilgan mehnat munosabati sifatida talqin etishlari mumkin. Bunday

---

<sup>22</sup>O‘zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari to’plami. 2001., № 5, 28-modda.


mavxumlik tufayli nizolarni xal etish, huquq buzilishi xolatlariga huquqiy baho berish va buzilgan huquqlarni tiklashda murakkab vaziyat yuzaga keladi. SHu sababli Vazirlar Maxkamasining yuqorida qayd etilgan qaroribilan tasdiqlangan “Vaqtinchalik ish bilan ta’minlash to‘g‘risidagi namunaviy nizom”da vaqtinchalik ish bilan ta’minlash deganda qanday ishlar nazarda tutilishi, uning muddati qanchagacha davom etishi,vaqtinchalik bir martalik ishga yollowchi va bunday ishga yollanayotgan shaxs o‘rtasidagi huquqiy aloqalarning o‘ziga xos jihatlari, mazmun-mohiyati aniq ravshan ko‘rsatib qo‘yilishi lozim. Xalqaro mehnat tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, dunyodagi 67 million nafardan ortiq uy xizmatchisining 60 millioni biron-bir ijtimoiy ta’minot dasturi bilan qamrab olinmagan.

### **1.2.1.-jadval**

#### **Aholi migratsiyasi (ming kishi)**


	<b>2016 yil</b>	<b>2017 yil</b>
<b>Ko‘chib kelganlar</b>	141,6	157,1
<b>Ko‘chib ketganlar</b>	167,8	177,7
<b>Migratsiya saldosi</b>	-26,2	-20,6

Statistik ma’lumotlariga qaraganda so‘nggi 25 yil davomida O‘zbekiston Respublikasi hududidan boshqa mamlakatlarga ko‘chib ketganlar soni quyidagicha hisoblanadi. Bunda asosiy ko‘rsatkich (36,4%) bilan Qozog‘iston respublikasi va (31,0%) odamlar esa Rossiya Federatsiyasiga ko‘chib ketishgan. Tojikiston Respublikasiga ko‘chib ketganlarning soni esa (18,1%) ni tashkil etadi. Qиргизистон, Туркменистан ва бoshqa hududlarga ko‘chib ketganlar soni esa jami bo‘lib (14,5%) ni tashkil etmoqda.




**1.2.1-rasm. O'zbekiston Respublikasi hududidan boshqa mamlakatlarga ko'chib ketganlar soni**

Mehnat migratsiyasi sifatida xorijiy mamlakatlarga chiqish bo'yicha statistik ma'lumotlar esa quyidagicha hisoblanadi. Bu erda asosiy Rossiya Federatsiyasi katta ahamiyat kasb etmoqda.



**1.2.2-rasm. Mehnat migratsiyasi sifatida xorijiy mamalakatlarga chiqish bo'yicha**

1991- yildan 2016- yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida aholining o‘sishi dinamikasi quyidagicha ko‘rinishga ega.



### 1.2.3-rasm. 1991- yildan 2016- yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida aholining o‘sishi dinamikasi.

Uy xizmatchilarining 68 foizi Osiyo va Lotin Amerikasida mehnat qiladi, Mehnat migrantlarining 11,5 foizi uy xizmatchisi sifatida ishlaydi. YOllanma uy xizmatchisi bilan tuzilayotgan mehnat shartnomasida uning qaysi kasb yoki vazifalarni bajarish uchun qabul qilinayotgani, maoshi, ish joyi, ishni boshlash vaqt, mehnat shartnomasining muddati aniq, ravshan ko‘rsatib qo‘yilishi lozim. Uy xizmatchisi va uni ishga yollagan shaxs (oila) o‘rtasidagi mehnat munosabatlari spetsifik xususiyatlarga ega bo‘ladi va bunda mehnat majburiyatlarini bajarish korxona va tashkilotda, mehnat jamoasi orasida ishlashdan jiddiy farq qiladi. Uy xizmatchisi bilan yuz beradigan mehnat munosabati shaxsiy xususiyatga ega va u ishga yollagan fuqaroning, oilaning ishongan shaxsiga aylanadi. SHu sababli ishonchning suiste’mol qilinishi og‘ir ma’naviy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bu omillar uy xizmatchisini ishga qabul qilishga oid qoidalardagina emas, balki u bilan mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari va tartibiga doir normalarda ham mustahkamlab qo‘yilishi zarur.

Eng muhim, xonodon xizmatchisi bilan tuzilayotgan mehnat shartnomasida uning qaysi kasb yoki vazifalarni bajarish uchun qabul qilinayotgani, maoshi (xodim oy davomida to‘liq ishlagani taqdirda uning maoshi rasman belgilangan

eng kam ish xaqidan kam bo‘lmasligi sharti bilan), ish joyi (qaysi oilaga xizmat qilishi), ishni boshlash vaqtin, mehnat shartnomasini muddati aniq ravshan ko‘rsatib qo‘yilishi lozim. Nazarimizda, uy xizmatchisi bilan tuziladigan mehnat shartnomasida uning ish vaqtin rejimi (ishga kelish, ketish, dam olish kunlari ish vaqtidan tashqari vaqtarda ishga jalb etish shartlari va boshqa aniq xolatlar ko‘rsatib qo‘yilishi kerak.

Uy xizmatchisi bilan tuzilayotgan mehnat shartnomasida o‘zaro mehnat munosabatlari xarakteriga mos keluvchi qo‘shimcha shartlar xam nazarda tutilishi mumkin. Masalan, qo‘shimcha vazifalarni bajarish, xodimning ish beruvchi tomonidan turar joy, oziq-ovqat bilan ta’minlanishi, ish xaqining muayyan qismini natural shaklida to‘lash va boshqalar. SHartnomada, shuningdek, xodim zararli odatlar (tamaki chekmaslik, spirtli ichimlik iste’mol qilmaslik) dan xoli bo‘lishi xaqidagi band xam belgilanishi mumkin. Uy xizmatchisi sifatida faqat 18 yoshga to‘lgan shaxslar ishga qabul qilinishi belgilanishi kerak. CHunki bunday ishlar o‘ziga xos murakkabliklarga ega va bunda xodimning ma’naviy-axloqiy manfaatlariga putur etkazilmasligi shart.

Uy xizmatchisi bilan tuziladigan mehnat shartnomasi tufayli ish beruvchining xayotiy manfaatlariga jiddiy ziyon etishi mumkinligi, oilaning obro‘sni e’tiborga olingani xolda qo‘shimcha hujjatlar talab etilishi (ichki ishlar, sog‘lijni saqlash, maorif organlarining ma’lumotnomasi va boshqalar) maqsadga muvofiq.

Xonodon xizmatchilarining mehnatini huquqiy tartibga solish millionlab insonlarning, xususan, xotin-qizlarning munosib mehnat sharoitlarida ishlashiga imkon beradi. Xonodon xizmatchilari bilan bog‘liq qonununchilikning ishlab chiqilishi mazkur shaxslar kelgusida pensiya ta’minoti bilan ham qamrab olinishini anglatadi. Yo‘llanma xizmatchilari bilan yuzaga keladigan mehnat munosabatlarida qonun xujjatlarining to‘g‘i va aniq qo‘llanishi inson huquqdarini ta’minlash kafolatlaridan biri sanaladi hamda mamlakatimizda qonuniylik, ijtimoiy adolat muhitining shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Huquqiy davlat va fuqarolik

jamiyati barpo qilar ekanmiz, hayotimizning barcha sohalarida qonun ustuvorligi ta'minlanishi inson manfaatlariga to'liq xizmat qilishi lozim.

SHu bilan birga, memorandumga muvofiq har bir ish beruvchi o'zbekistonlik ishchi bilan mehnat faoliyatini amalga oshirish davrida ijtimoiy hamda mehnat kafolatlari, shu jumladan tibbiy sug'urtani o'z ichiga olgan mehnat shartnomasini tuzadi. Bundan tashqari, ushbu hujjat O'zbekiston fuqarosining Koreya Respublikasida mehnat qilish va yashash sharoitlari, mehnatiga haq to'lash, chunonchi, ushbu mamlakatda belgilangan eng kam ish haqidan kam bo'limgan ish haqi to'lash tartibini yo'lga qo'yadi.O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining mehnat daftarchalariga chet elda (shartnoma asosida) ishlagan davri haqidagi qaydlar, agarda xalqaro shartnomalarda boshqa qoidalar ko'zda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligining tegishli ma'lumotlariga asosan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'langanidan so'ng (ma'lumotnoma taqdim etilgach) kiritiladi.

Afsuski, ish beruvchilar tomonidan ham turli suiiste'molliklar uchrab turadi. Ular ko'pincha chet ellik ishchilarni normal mehnat sharoitlari bilan ta'minlamaydi, ularga ish haqini vaqtida bermaydi. Odatda, bunday holatlar chet ellik fuqaro noqonuniy ishlash uchun borganda yuzaga keladi. Masalan, muayyan ishga mahalliy fuqaro rasmiylashtiriladi, lekin uning o'rniغا shu mamlakatga noqonuniy kelgan chet ellik fuqaro ishlaydi. Natijada u ko'rsatilganidan ancha kam haq oladi. O'z-o'zidan ma'lumki, o'rtadagi farq o'sha korxona xo'jayinlarining cho'ntagiga tushadi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

## **II BOB. AYOLLAR MIGRATSİYASINI SOTSIOMADANIY MUNOSABATLAR O'ZGARISHIGA TASIRI**

### **2.1. Sotsiomadaniy munosabatlar o'zgarishi sharoitida ayollar migratsiyasi jarayonlarining o'zgarish tendentsiyalari**

Ayollar migratsiyasi globallashuv va uning natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida o'zining yangi qirralarini namoyish etib kelmoqda. Xususan migratsyaning yangi shakl va usullari paydo bo'lmoqda. Misol uchun: Migrant ishchilar ko'pincha hamshiralik ishi sohasida, qishloq xo'jaligi, mehmonxona va restoranlar, shuningdek, uy xizmatchiligi kabi sohalarda band bo'lishadi. Muhojir ayol ishchilarni jalb qilinish darajasi rivojlangan mamlakatlarda mehnat bilan babd ayollarning<sup>34</sup> foiziga to'g'ri keladi.

Ko'p rivojlangan mamlakatlarda, migrant ishchilar juda ko'p xisoblanadi , ular mehnat sohalarida majburan ushlab turilmasada uyg'a qaytish uchun tezda oshiqishmaydi. Ixtiyoriy ravishda tark etishga moliyaviy imtiyozlar berilsa ham, ular tark etishdan bosh tortadilar. Qisqacha aytganda, uydagi sharoit yanada yomonlashadi. Uy egasi mamlakatlarda ishslash uchun ba'zi imkoniyatlar mavjud bo'lsa, ularning Vatani yo'q. Ular har qanday ishni, hatto eng kam haq to'lanadigan va kamsituvchi mehnat sharoitlarini qabul qilishga majbur. Har yili inqirozga qaramay, kam rivojlangan mamlakatlardan kelgan millionlab odamlar ish topish umidida davlat chegaralarini kesib o'tmoqdalar yana shuni ta'kidlab o'tish joizki bularning ko'pchiligi ayollarni xam o'z ichiga olmoqda.

Xalqaro mehnat migratsiyasi ijtimoiy hayotning barcha tomonlariga asosan ko'p qirrali hodisalar: Iqtisodiyot va siyosat, demografik jarayonlar va milliy munosabatlar, mafkura va dinga ham ta'sir o'tkazmoqda. Globallashuv jarayoni orqali har bir mamlakatning o'ziga xos xususiyatlari bilan davlatlararo migratsiya almashinuv jarayoni etarlicha oshdi. Ba'zi mamlakatlarda aholining o'sishi, moddiy ishlab chiqarish va demografik portlash kabi holatlar millionlab odamlar o'z mamlakatlarini tark etib, moddiy farovonlikni izlash uchun boshqa

mamlakatlarga ketishlariga sabab bo‘lmoqda. SHu bilan birga, ayollar mehnat migratsiyasi jarayoniga tobora ko‘proq jalb qilinayotgani muhimdir. Keyingi 20 yil ichida Amerika tadqiqotchi S. Kastla fikriga ko‘ra, feminizatsion jarayonlar etakchi tendentsiyalaridan biri bo‘ladi.

Migratsiya bo‘yicha gender tushunchasi migratsiya nazariyasi va amaliyotiga integratsiyalashish juda qiyin edi. Iqtisodiyot va tashqi mehnat migratsiyasida mamlakatdagi migratsiya jarayonlarida ayollarning o‘rni haqida fikrlar so‘nggi o‘n yilliklarda keskin o‘zgargan. An’anaviy tarzda uzoq vaqt davomida mehnat muhojirlarining mutlaq ko‘pchiligi erkaklar ekanligi haqida aniq va to‘liq tasavvur qilingandi. Migrant sub’ekti sifatida ayollar ham umuman ko‘rib chiqilmagan yoki faqat sayohat uchun chet elga chiqqan deb hisoblanar edi. 1980-yildan beri xalqaro hamjamiyat muhojir ayollarni va ularning muammolarini ijtimoiy darajalarda, va migratsiya siyosatiga ochiq deb ko‘rsatish uchun choralar ko‘rishga kirishdi.

BMT Aholishunoslik bo‘limi Xalqaro Migratsiya siyosati va Ayollar muhojirlarining maqomi bo‘yicha ekspert guruhini tashkil etdi. 1990-yilda ushbu guruhning birinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi va u migratsiya sohasidagi gender jihatidan sezgir yondashuvni ishlab chiqish bo‘yicha dastur bo‘lib chiqdi. Bu guruh tomonidan amalga oshirildi. Bu erda asosiy narsa ayollar erkak xodimlar uchun qo‘srimcha ravishda deb hisoblashdi, aslida esa bu bir bayonot, ular migratsiya jarayonlarida mustaqil va faol qatnashchilaridir.

SHunday qilib, umumiy migratsiya haqida gap ketganda eng yuqori xalqaro darajada deb hisoblansa, ayollar migratsiya asosan "ikkinchi darajali" deb qaralgan. Ayollar o‘rtasida ham migrantsion jarayonlarning jadallik bilan borishi holati esa bu tushunchani eskirishga majbur etdi. Ayol muhojirlar uchun "noqonuniy muhojirlar" (ya’ni, mustaqil yoki "turmush o‘rtog‘iga, oilasiga qo‘silmaganlar") uchun maxsus atama mavjud edi. Bundan tashqari, migrantsion oqimlarning "feminizatsiyasi" mutaxasislar tomonidan xalqaro mehnat migratsiyasining rivojlanishidagi eng so‘nggi bosqich sifatida hisoblanadi. Va ayollarning migratsiyasi uchun xos bo‘lgan barcha muammolar zudlik bilan

ko‘rinmay qoldi. Ayollar migratsiyasi sohasida ko‘plab muammolarni sabablari, migrant ayollar va jamiyatning iqtisodiy tuzilishidagi ularning roli qay darajadaligi hali ham to‘liq echimga ega emas. SHu sababli, ayollarning migratsiya muammosini tushunish uchun, ayollar mehnat muhojirlari xalqaro mehnat bozoridagi ahvolni ko‘rib chiqish kerak. Bu qiyin ish sharoitlari va kam haq to‘lanadigan,birinchi navbatda, yuqori malaka talab qilmaydigan bir nodavlat nufuzli ish o‘rni hisoblanadi. Ayollar muhojirlar asosan quydagi sohalarda band bo‘lishad: umumiy xizmatlar, uy parvarishlash (mehmonxona, bar, sport zallari va boshqalar quyi xodimlari) (shou-dasturlar, jinsiy xizmatlarda ishtirok, restoranlar va kafelarda hizmat), (bolalarni parvarishlash, qariyalar va kasallarga g‘amxo‘rlik qilish).

Jumladan, O‘rta Osiyo hududi (hozirgi kunga qadar ham patriarxal oila turmush tarzi va uydagitarib kuchli darajada saqlanib qolgan) ayollarining migrantsion faolligi migrantlarning genderli stereotiplari va qarashlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi, bu esa o‘z navbatida ayolningiqtisodiy maqomini o‘zgartirgan holda O‘rta Osiyo ayollarini an’anaviy uy tartibiga asoslanganturmush tarzidan tashqari bo‘lgan bandlik sohasiga jalb qilib bormoqda.Tadqiqot natijalariga ko‘ra shuningdek, ayollar migratsiyasi genderli diskriminatsiya(tahqirlash), noqonuniy huquqiy maqom, jinsiy ekspluatatsiya, trafik va boshqalar bilan bog‘liqbo‘lgan muayyan ijtimoiy va iqtisodiy xavflar bilan bog‘liq. Tadqiqot davomida aniqlangantaristonlik migrant-ayollarning eng odatiy guruhlari quyidagilardan iborat:

- nikoh migrantlari (kelinlar);
- tadbirkorlar (Pol`sha, Turkiya va Xitoyga mahsulotlar olib kirish maqsadida chiqibketuvchi savdogarlar yoki “olib-sotarlar”);
- G‘arb mamlakatlariga pul topish maqsadida turli mavsumiy ishlarda ishslash uchun chiqib ketuvchi talabalar;
- trafik qurbanlari.

Migrant-ayollarning boshqa guruhlari Tatariston Respublikasiga keluvchilar orasidan namoyon bo‘ladi:

- qochoqlar va majburan ko‘chib o‘tganlar;
- “yaqin xorij” va “uzoq xorijlik” iqtisodiy migrantlar.

Tatariston Respublikasiga ko‘chib o‘tishlarining asosiy sabablaridan biri sifatida ular o‘zshaxsiy hayotlariga xavf tug‘ilganligini emas, balki o‘z farzandlarining hayotiy istiqbollariga haqida tashvishlanganlarini aytib o‘tganlar, ayrim intervylarda shuningdek, iqtisodiy sabablar va yomon iqlim va ekologiya kabi sabablar ham ko‘rsatib o‘tilgan (Qozog‘istondan kelgan respondentlar). Tadbiqiy tadqiqot materiallari mehnatkash migrant-ayollarni mustaqillik mezoni va ayolning migratsion jarayonidagi roliga ko‘ra guruhlarga tasniflash imkonini berdi.

Migrant-ayollarning birinchi guruhi – oila boshliqlari (turmushga chiqmagan, ajrashgan, bevalar). Tabiiyki, bu kabi ayollar to‘laqonli ravishda o‘z taqdirlarini o‘zlari hal qiladilarva o‘z oilalari uchun o‘zlari javobgardirlar. Ularning ikkinchi guruhi – migratsiya “pionerlari” bo‘lgan ayollar. Ko‘pincha oilasi bilan (eri, bolalari, ota-onasi) birga ko‘chib o‘tgan ayollar ham ko‘pincha o‘zlari migratsiyaning tashabbuskoriva tashkilotchisi bo‘lgan, eri esa uning ortidan ergashgan, shu bilan birga yangi joyga moslashishva o‘zi uchun sharoit yaratish manbasi sifatida ko‘pincha ayolning ijtimoiy kapitalidan foydalilanilgan (ayolning otmda birga tahsil olgan eski tanishlari, yangi aloqalari va h.k.).

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, muayyan sharoitlarda turmushga chiqqan ayol odatda erkak, ya’ni oilaboshiga tegishli bo‘lgan migratsiya tashkilotchisi rolini o‘z zimmasiga olishi mumkinliginiko‘rsatadi. Ushbu shartlar sirasiga erkak qandaydir ob’ektiv yoki sub’ektiv sabablarga ko‘raega bo‘lmagan, ayolning ijtimoiy kapitaliga kiritish mumkin bo‘lgan manbalarga egaligini misolqilib ko‘rsatish mumkin. Intervyu davrida o‘rganilgan oilaviy migratsiyaga oid misollardanko‘rinib turibdiki, ijtimoiy kapital va muvofiq tarzda ayollarning migratsiyadagi rolini oshirib boruvchi omillar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkinligi aniqlandi: millati(tatar/rus); ma’lumoti (oliy yoki o‘rtalik maxsus), huquqiy savodxonligi; TR OTMlari yoki texnikumlarida olingan ma’lumot; TRda

qarindoshlarning mavjudligi; mehnatga layoqatli yoshdaliligi; kirishimlilik, tashabbuskorlik, faol hayotiy qarashlar.

Muvaffaqiyatli migratsiya uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy kapital turmush o‘rtoqlarning har ikkisida ham teng bo‘lsa, ko‘chibo‘tish haqidagi qarorni er-xotin ikkisi teng holda qabul qiladilar va ko‘chib o‘tish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha tashvish vayukni teng ko‘taradilar. Ayollar muhojirlari mehnat muhojirlarining eng kamsitadigan, norasmiy va soyali qismlarida ishlaydi., ayniqsa, uy-joy xizmatlari kabi sohalarda.

Markaziy Osiyoda, xususan O‘zbekistonda oilaning markaziy o‘rnida erkaklarning mavqeyi ustun turadi. SHu nuqtayi nazardan, har bir yosh ayolning vazifasi nikohga, farzandlarning tug‘ilishiga va tarbiyalanishiga tezkor kirish va oilaviy burchning ustuvorligi muhim hisoblanadi. O‘zbekiston dagi jamoatchilik fikri erta turmush qurish amaliyotini qo‘llab-quvvatlaydi va rag‘batlantiradi va ayollarni oilaparvar bo‘lishga o‘rgatadi. Juhon banki ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda o‘rtacha nikoh qurish yoshi 21,9 yoshni tashkil qiladi.

Taqqoslash uchun: SHvetsiyada xuddi shu ko‘rsatkich - 32,3 yosh O‘zbekistonda har bir ayol uchun o‘rtacha uchta bola bor. Ko‘p hollarda, erta turmush qurgan yosh ayollar kasbiy ta’lim, kasbiy rivojlanish va kasb-hunar rivojlanishidan voz kechishga majbur. Bu o‘z navbatida, mehnat bozorida ayollarning mavqeyini yomonlashtiradi, ularning raqobatbardoshligini cheklaydi va eng kam ish haqi to‘lanadigan sohalarga "ularni haydab chiqaradi". Oila boshi (erkaklar) bo‘lmagan bir paytda, ayollar tirikchilik uchun hech qanday ish topisha olishmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003- yil 12- noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet ellardagi mehnat faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet elda va xorijiy fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasida ishga joylashishini ta’minalash masalalarini hal etish, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi

masalalari agentligi hamda fuqarolarning chet ellarda ishga joylashishini ta'minlash bo'yicha mintaqaviy byurolar zimmasiga yuklangan.

Hududlar qamrovini kengaytirish maqsadida bunday byurolar Toshkent, Buxoro, Nukus, Farg'ona va Qarshi 'shaharlarida ham faoliyat ko'rsatmoqda. Bunda mamlakatimiz fuqarolari qonunchilikka binoan Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan tuzilgan hukumatlararo va idoralararo bitimlar asosida chet elga mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chiqish huquqiga ega.

Hukumatimizning yuqorida nomi qayd etilgan qarori doirasida fuqarolar, shuningdek, mazkur agentlik tomonidan beriladigan ruxsatnomalarga asosan shaxsiy mehnat shartnomalari bo'yicha mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chet elga chiqish huquqiga egadir. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi bilan Koreya Respublikasining Mehnat vazirligi o'rtaida O'zaro anglashuv to'g'risidagi memorandum imzolangan.

Ushbu hujjatga ko'ra, O'zbekiston fuqarolari mazkur mamlakatga mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun ketish oldidan chet ellarga ketayotgan fuqarolarni moslashtirish va o'qitish markazida o'qiydi. Bu erda ular o'zлari boradigan mamlakat qonunchiligi, an'analari va o'zini tutish normalari asoslari haqida ma'lumotga ega bo'ladi. Boradigan mamlakat tilini so'zlashish va mehnat vazifalarini bajarish uchun etarli darajada o'rganadi, shartnomasi bo'yicha ishga joylashadigan korxonalarda texnika xavfsizligi hamda mehnatni muhofaza qilish qoidalarini o'zlashtiradi, xorijlik ish beruvchilar talablari e'tiborga olingan holda tibbiy ko'rikdan o'tadi. Bunda o'zbekistonlik mehnat migranti mazkur mamlakatga kelishi bilan hayoti va sog'lig'ini sug'urta qilish hamda boshqa sug'urta turlari bo'yicha huquqlarga ega bo'ladi.

Mehnat bozorida ko'plab ayollar muammoga duch keladi. Birinchidan, bu ichki va tashqi omillar ta'siri ostida ushbu mamlakatlar iqtisodiyotida davom etadigan tarkibiy o'zgarishlarga bog'liq. An'anaviy ravishda ko'plab ayollar uchun ish bilan ta'minlangan yoki qisqartirilgan yoki to'liq yopilgan iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari, xususan, to'qimachilik sanoati, iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish va ishlab chiqarish kabi tarmoqlar arzon import qilinadigan

mahsulotlarning eng katta bosimini boshdan kechirmoqda. Mehnat bozorining chidamliligi ayollarning ko‘plab muammolariga o‘z hissasini qo‘shadi. SHu bilan birga, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va yangi texnologiyalar va investitsiyalarni jalb qilish yo‘li bilan yangi ish joylarini yaratish jarayoni to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning yo‘qligi va ko‘plab byurokratik to‘sinqarning mavjudligi tufayli juda qiyin.

Jinoiy migratsiyada birinchi navbatda giyohvand moddalarni olib o‘tish holatlari turadi. Huquqni muhofaza qilish idoralarining ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi yillarda ayollar ko‘proq jinoyatchilikka jalb qilingan. Misol uchun ular boshqa xorijiy mamlakatlarga chiqib ketish jarayonida “jonli kontiner” vazifasini o‘tash xolatlari ham uchrab turubdi.

Ayollar migratsiyasi, ayniqsa, migratsiyaning inqirozi davrida alohida guruhga ajratilib ko‘rsatildi, u ko‘p jihatdan erkaklardan farqli o‘laroq o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Musulmon jamiyatda ayollar hayoti, uning huquq va vazifalari shuningdek, yangi mamlakatdag imkoniyatlari batafsil tahlil qilinadi.

Ikkinchi jahon urushi va mustamlakachilik tizimining tugashi Evropaga Afrika mamlakatlaridan, asosan musulmon aholi, arzon ishchi kuchi kirib kelishi uchun boshlanish nuqtasi bo‘ldi.

Nihoyasi yo‘q harbiy harakatlar, hayotga doimiy taxdid, erlarni cho‘llanishi bilan bog‘liq ekologik ofatlar, ichimlik suvi etishmasligi, tabiiy ofatlar, ocharchilik, kasallik, qashshoqlik, aholisonining ortishi o‘z uylarini tark etishga va o‘z baxtini boshqa joylardanizlashga majbur qilmoqda. Va, albatta, bu sharoitda "eng zaif bo‘g‘in" ayollar, bolalar va qariyalar bo‘lmoqda.

Uzoq vaqt davomida migratsiya erkaklarga xos xususiyat edi. Erkaklar pul topish maqsadida ketishardi, keyinchalik ko‘pchiligi mezbon mamlakatlarida o‘troqlashib, moslashib oila tashkil etishar edi. XX asrning oxirlarida migratsiya jarayonida ayollar katta ahamiyat kasb etisha boshlashdi. Bu ham siyosiy ham iqtisodiy sabablar bilan bo‘gliq hisoblanadi chunki, migratsiya inqirozida ayollar migratsiyasi alohida guruh bo‘lib ajralib turishi umumiyl belgilargava xususiyatlarga ega ekanligi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Ayol muhojirlar, odatda, aholining kam haq to‘lanadigan qismiga tushib qolishadi, chunki tirik qolish va o‘z oilasini boqish uchun ular har qanday ishga tayyor bo‘lishadi. Asosan bu xizmat ko‘rsatish, kasallar va qariyalarga qarash va ko‘ngil ochish sohalaridir. Ayol migrantlar band bo‘lgan sohalardan biri bu jinsiy sanoat va jinsiy sayyoqlikdir. Bu soha hozirda ko‘p daromad keltiruvchi, ko‘pincha kriminal xarakterga ega transmilliy biznesga aylangan. Rivojlangan davlatlarda jinsiy sanoat “xizmat ko‘rsatsih iqtisodiyotining” asosiy tashkiliy qismiga aylandi.

Evropaga musulmon davlarlaridan ayollarni ko‘chib kelishi o‘zgacha kechmoqda. Arab bahori yoki “arablar uyg‘onishi”<sup>23</sup> kutilgan ulkan demokratik uzgarishlarni bermadi, bu davatlarda (Tunis, Misr, YAman, Suriya, Liviya) ayollar holati esa faqat yomonlashdi<sup>24</sup>.

Urushlar natijasida 1,6 million nafar ayol beva qoldi, ayollar orasida ishsizlik 14,5 % tashkil qildi. Ular o‘z va ayniqsa farzandlari kelajagi va istiqboliga nisbatan umidni yoqotishdi. Bu o‘zları yashab turgan davlatdan ketish uchun tutqin bo‘ldi. Jang maydonlari va fuqarolar urushi hududlaridanqochgan ayollarning ko‘philigi, shuningdek, majburiy nikoh yoki jinsiy majruhlikka (ayollar jinsiy a’zolarini kesib tashlanishi) tushib qolmaslik uchun qochib kelishgan edi. Agar ular o‘zları yoki farzandlari bilan qochgan taqdirda katta tavakkalga duch kelishar edi. Erkak jinsiga mansub kishi yoki tanishlari hamrohligida ko‘chib ketayotgan bo‘lsalar ham bu ularga har doim ham zo‘ravonlikdan himoya qilmaydi, chunki bu holat ma’lum miqdorda qaramlik va jinsiy ekspluatatsiyaga olib kelishi mumkin.

Bugungi kunda musulmon davlatlaridan Evropaga ayol muhojirlarni kelish haqida gender malumot kam taqdim qilingan va musulmon ommasini yopiqligi natijasida kam o‘rganilgan. Boshpana qidiryotgan odamlarni ko‘p qismi yosh erkaklardir. BMTning muhojirlar ishi bo‘yicha Agentligi xisob-kitobiga ko‘ra, dengiz yo‘li orqali shu yili Evropa ittfoqiga kelgan 411 567 nafar qochoq-muhojirlarning 72 % erkaklar, 13% ayollar va 15%ni bolalar tashkil qiladi.<sup>25</sup>

<sup>23</sup> <http://ru.rfwiki.org/wiki/Арабскаявесна>

<sup>24</sup> Мацца В. Арабская весна принесла женщинам поражение: интервью газете Corriere della Sera. Доступ: <http://inopresa.ru/article/12Nov2013/corriere/arab.html> (проверено 16.10.2016).

<sup>25</sup> <http://www.unhcr.org/>

Musulmonlarning turmush tarzi asosida Dar-al-Islom yoki shariat qonunlari tarqalgan hudud, ya’ni musulmon huquqi hududi turadi. Dar-al-Islomning teskarisi dar-al-kufr<sup>26</sup> yoki jaholat (adashish) hududi hisoblanadi. Evropa musulmon muhojirlar nuqta’yi nazarida mana shunday hudud hisoblanadi va shu sababdan Dar-al-Islomni tarqatish ular uchun prinsipial ishdirdi. Musulmon huquqida patriarchallik hukm suradi – oiladi otaning hoxish istagi etakchi hisoblanadi va erkaklar ko‘p huquqlarga ega.

Ayollar umrining oxirigacha layoqatsiz o’smir kabi huquqlardan cheklangan yoki umuman huquqlarsiz yashashadi. SHuning uchun teng huquqlilik, ayollar jamoat ishlarida faol qatnashadigon va rahbar lavozimida ishlash imkonini bo‘lgan dunyo ular uchun shunchaki tushinarsiz bo‘ladi. G‘arbning haqiqatlariga tanqidiy munosabatda bo‘lish, ayniqlsa, erkaklar orasida keng tarqalgan. SHuning uchun ular ayol-politsiyachi, sudya-ayol va shunga uxshashlarni jiddiy qabul qilishmaydi. Bunga yaqqol misol 2016-yil Yangi yil arafasida Kyolnda bo‘lgan hodisadir. O‘shanda migrantlar tomonidan o‘nlab ayollar zo‘ravonlikka uchrashgan edi.<sup>27</sup> Sodir bo‘lgan bu voqeani arab tilida maxsus nomi bor -“taxarrush” Taxarrush bu yangi ijtimoiy hodisa bo‘lib, unda migrantlar odamlar ommaviy toplanadigan joylarda evropa ayollariga nisbatan zo‘rlik qilishadi.

Evropada yashaydigan ko‘pchilik musulmon ayollar bu erda oilalarini birlashtirish siyosati natijasida paydo bo‘lishgan edi. Evropa ayollari singari oliy ta’lim olish, erkin va mustaqil bo‘lish o‘ziga jalb etuvchi istiqboldir, lekin ko‘pchilik holatlarda jamoatdan ajralish, uning qo‘llab quvvatlashi va himoyasidan ayrılish, diniy qoida va an’analarga zid kelish juda qiyin. Ko‘pchilik hollarda musulmon ayol va qizlar o‘z tanlovlardida erkin emaslar: ko‘pchiliklari yaqinlari va jamoat tazyiqi ostida hijob o‘rab yurishga majbur bo‘lishadi.

Ko‘pincha ro‘mol o‘rashni rad qilgan musulmon ayollar boshqalar tomonidan kamsitishga, kuch ishlatishga, aggressiyaga yoki jinsiy zo‘rlashga duchor

<sup>26</sup>Bu ibora dinniy ibora hisoblanmaydi. Birinchi marta islam mudarisi Abu Xanifa an-Numan ibn Sabit al-Kufi (677-767) tomonidan qo‘lanilgan.

<sup>27</sup>Керн С. Германия: эпидемия изнасилований мигрантами. Доступ: <http://holicin.livejournal.com/5498648.html> (проверено 16.10.2016).

bo‘lishadi. Musulmon odatlariga ko‘ra xotin eriga to‘liq bo‘ysinishi lozim. Ayolning asosiy roli oila bilan bog‘liq, chunki er oilani moliyaviy ta’minlashi belgilangan. Agar ayol xohish va qat’iyat namoyon etib o‘qimoqchi, ishlamoqchi va h.k. bo`lsa bu jarayon uning vasiylikka olgan kishi – eri, akasi, otasi roziligi bilan bulishi kerak. SHunday qilib u ruxsat olishi lozim va uni olgandan keyingina rivojlanishda davom etishi mumkin. Biroq, musulmon erkaklar fikricha agar ayol kishi ishslash uchun uydan ketsa, u albatta boshqa erkaklar bilan aloqaga kirishadi va bu noaxloqiy hatti xarakatga quyilgan birinchi qadam bo‘ladi.

